

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI

**Yusuf Hos Hojibning “Qutadg’u bilig” asaridan boshlang’ich sinf
o’quvchilarining “Odobnoma” darslarida foydalanish.**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Boshlang’ich sinf va sport
tarbiyaviy ish” ta’lim yo’nalishi bitiruvchisi 4
kurs talabasi **Xudoyberganov M.**

Ilmiy rahbar: “Umumiy pedagogika” kafedrası
o’qituvchisi X.A.Norpo’latova _____

REJA

Kirish.

1-BOB. Yusuf Xos Hojibning ilmiy merosi va undan foydalanishning pedagogik asosi.

1.1. Yusuf Xos Hojibning ilmiy merosi haqida.

1.2. “Qutadg’u bilig” asarining yaratilish tarixi.

2-bob. Boshlang’ich ta’lim jarayonida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asaridan foydalanishning shakl va usullari.

2.1. Boshlang’ich sinflarda “Odobnoma” fanini o’qitishning ilmiy va milliy asoslari.

2.2. “Odobnoma” darslarida “Qutadg’u bilig” asaridan foydalanish borasidagi shart-sharoitlar.

Umumiy xulosa va tavsiyalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

Ilova.

«Vatanimizning kelajagi, xalkimizning ertangi kuni mamlakatimizning jahon xamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalom bor farzandlarimizning ushbu,o'sib, ulg'ayib qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga boqliqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unitmasligimiz kerak»

I.A.Karimov¹

Bugun biz tarixiy davrda xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar g'o'yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalom bor o'z kuch imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyat qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish lozimki, ezgu fazilat va intilishlar xalqimizning qoni va suyak-suyagiga singib ketgan. Uning tabiatiga xos bo'lgan yuksak ma'naviyat necha asrlarki bizni ne-ne balo-qazolardan, to'fon va bo'ronlardan soq' omon asrab kelmoqda. Har qanday bosqin va istilolarga qaramasdan, xar qanday og'ir va murakkab sharoitda ham ota-bobolarimiz o'zlarini yo'qotmasdan, ma'naviy hayot mezonlari, odob-ahloq qoidalariga amal qilib, komillik sari intilib yashagani bugun ham barchamizga ibrat bo'lib, kuch-quvvat baq'ishlab kelmoqda.

Mana shunday ma'naviy yuksalishga erishish uchun zamonaviy ta'lim mazmuni milliy merosimizdagi o'lmas qadriyatlarimizni olib kirish, tarbiyaning eng samarali usuli sifatida xalq pedagogikasi namunalaridan foydalanish har qachongidek ham zaruriyat darajasiga etganligi sir emas.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, turli jabhalarda rivojlanish sari ildam odimlab bormoqda. Ushbu jarayon o'z-o'zidan yosh avlod ongiga, dunyoqarashiga, ayniqsa uning ta'lim-tarbiya jarayoniga o'z ta'sirini sezilarli darajada namoyon etib kelmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish borasidagi olib borilayotgan chora-tadbirlarda ham aynan shu jihat talab qilinayotganligi bejiz emas.

¹Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch" T."Ma'naviyat",2008 ,1-bet

Chunki har bir millat o'z milliy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan milliy-ma'naviy meroslaridan kelajak avlod ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanmas ekan, bu o'z-o'zidan ma'naviy qashshoqlikka olib keladi.

Har bir jaryonning umrboqiyligi, uning natijasining samarasi albatta dastlabki, «Qadam» qay yo'sinda boshlanganligiga boqliq. Shuning uchun ham biz o'z ilmiy izlanishlarimizni boshlang'ich sinflarning ta'lim-tarbiya jarayonida milliy-madaniy merosimiz namunalaridan qanday foydalanish imkoniyati mavjudligini o'rganish jarayoni bilan boqliq holda olib borishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Qutadg'u bilig –baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Demak, asar nomidan ham uning pand-nasihatlar, ta'lim-tarbiyaga oid, har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan etuk didaktik asar ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi.

«Qutadg'u bilig»ning tadqiqotchilaridan biri B.Tuxliev ta'kidlaganidek, Yusuf Xos Hojib «Komil inson haqida gapirar ekan, kamolotning qator belgilarini ko'rsatib o'tadi. Ularning eng asosiysi alohida shaxsning manfaatlariga,shaxsiy istaklari doirasini yorib chiqib, boshqalar g'ami bilan yashashi, ko'pchilik manfaati uchun fidoyi bo'la bilishdir»²

Yuqorida aytib o'tilganidek, Yusuf Xos Hojibning asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo'lib hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o'rni, burch va vazifalari haqidagi muammolar o'ziga xos bir tarzda bayon etiladi.

Mutaffakir ta'limotiga ko'ra insonning baxt-saodatga, erishuvi faqat bilimga boqliqligi e'tirof etiladi.

Mustaqil mamlakatimizning ham oliy maqsadi har tomonlama etuk barkamol shaxsni voyaga etkazishdir.

Biz har ikki jihatdagi mushtarak maqsadni amalga oshirish uchun boshlanh'ich ta'lim jarayoni eng qulay eng samarali jarayon deb, o'z bitiruv

² Б.Тухлиев Юсуф Хос Ҳожибниг «Қутадғу билиг» асарида сўзбоши.Т.Юлдузча нашриёти. 1990 й. 6-бет

malakaviy ishimizni mavzusini tanlashda boshlang'ich ta'lim jarayoniga, aynan «Odobnoma» darslariga to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da «Yosh avlodni ma'naviy ahloqiy tarbiyalashda, xalqning boy madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va har tomonlama kamol toptirishning ustivorligi ta'minlanadi. Umumiy, hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat aholisi o'rtasida ma'rifiy ishlar takomillashtirib boriladi» – deb ta'kidlanadi.³

Demak, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan ham kelib chiqadigan bo'lsak, shuningdek xalqning uzoq yillik tarixiy tajribasi ham kelajak avlodni, ertangi kun vorislarini xalqimizning boy tarixiy-ma'naviy meroslari asosida tarbiyalashni, ta'lim berishni taqazo etadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf «Odobnoma» darslarida Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan foydalanib, ta'lim tarbiya jarayonini tashkil qilish boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun eng dolzarb muammolardan biridir.

O'rganilgan adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarning «Odobnoma» darslarida Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan foydalanish alohida tadqiqot sifatida o'rganilmaganligi bizni ushbu mavzuda bitiruv malakaviy ish olib borishimizni taqazo etdi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Boshlang'ich sinflarning «Odobnoma» darslarida Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan foydalanishning shakl va usullarini ishlab chiqib, amaliyotda qo'llashdan, tahlillar asosida ilmiy xulosalar chiqarishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning o'rganilganlik darajasi. Hozirgacha «Qutadg'u bilig»ning Hirot, Qohira, Namangan nusxalari ma'lum bo'lib,

³ Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. Sharq, 1997, 55-bet

Venaga keltirilgan Hirot nusxasini Herman Vanberi nashr qildirgan va tarjimasini bergan.

1890 yilda V.V.Radlov Vena nusxasining faksemilisini, 1891 yilda shu faksemeli asosida matnini nashr kildirgan.

1896 yilda Qohira nusxasi topilgandan so'ng, undan ko'chirma olgach, V.Radlov har ikki nusxani qiyoslab, 1910 yilda rus grafikasiga asoslangan to'liq traskriptsiyasini nemis tiliga tarjimai bilan nashr ettirdi.

1913 yilda esa uning uchinchi nusxasi topilib, keyinchalik olimlar bu asarni tadqiq etishga kirishdilar.

Demak Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarini ilmiy jihatdan o'rganishga juda ko'p omil hissa qo'shgan. V.V.Radlov, H.Vamberi, S.E.Malovlar uni tarjima etib, nashr qilgan bo'lsalar, V.V.Bartold, E.E.Bertels, I.V.Stebleva, O.A.Valitovalar har tomonlama tadqiq etganlar.

«Qutadg'u bilig»ning mukammal nashri o'zbek olimi Q.Karimov tomonidan amalga oshirildi va tadqiq etildi. Uni tahlil etishda S.M.Mutallibaev, N.M.Mallaevlarning xizmatlari katta.

«Qutadg'u bilig»ning hozirgi bolalarbop bayoni esa Boqijon Tuxliev tomonidan nashr etildi. Yusuf Xos Hojibning axloqiy didaktikasi Q.Karimov, Y.Jumaboev tomonidan har tomonlama tadqiq etilgan.

Qoraqolpog'istonlik Arzieva esa Yusuf Xos Hojibning pedagogik qarashlari to'g'risida ilmiy ish olib borgan.

Shuningdek bir qator pedagog olimlarimiz prof.K.Xoshimov, prof.A.Zunnunov, prof.J.Xasanbaev, prof.B.Qodirov, prof.S.Nishonovalar ham «Qutadg'u bilig» asarinig ta'limiy, tarbiyaviy imkoniyatlari to'g'risida, Yusuf Xos Hojibning ahloqiy-ma'rifiy qarashlari to'g'risida qimmatli fikrlarini matbuot sahifalarida bayon qilishgan

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti - boshlang'ich sinflarning «Odobnoma» dars jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti - «Qutadg'u bilig» asaridan «Odobnoma» darslarida foydalanishning samarali shakl va usullari.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari:

-«Odobnoma» darslarida Yusuf Xos Hojibning ilmiy merosidan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

-«Qutadg'u bilig»dan «Odobnoma» darslaridan, foydalanishning shakl va usullarini ishlab chiqish, amalda qo'llab ko'rish;

-«Odobnoma» darslarida «Qutadg'u bilig» asaridan foydalanish borasidagi o'quvchi ma'naviyati shakllanishining samaradorligini aniqlash.

-Boshlang'ich sinf ta'lim jarayonida -«Qutadg'u bilig» asaridan foydalanish borasidagi ilmiy kuzatishlar olib borish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazi: boshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'naviy ahloqiy qarashlarida sezilarli o'zgarish bo'ladi, agarda:

-«Odobnoma» darslarida milliy ma'naviy meroslarimizdan samarali foydalanilsa ;

-Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan «Odobnoma» darslarida va sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda ham muntazam foydalanib borilsa:

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi:

Boshlang'ich sinflarning - «Odobnoma» darslarida Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan foydalanishning samarali shakl va usullari aniqlandi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati.

Ma'naviy yuksalish sari rivojlanib borayotgan mustaqil davlatimizning ta'lim sohasidagi ustivor vazifasi barkamol, ma'nan etuk avlodni tarbiyalashdir. Tadqiqotimizning nazariy ahamiyati ham ana shu jihatga qaratilgan bo'lib, butun dunyoga ma'naviyatdan saboq bergan «Qutadg'u bilig» ilmiy asoslarini ta'lim jarayoniga tadbiq etish orqali maktab o'qituvchisi uchun «Qutadg'u bilig» asaridan foydalanish borasida aniq tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” Qonunlari, “Davlat ta’lim standartlari”, oliy ta’limi to’g’risidagi Nizomlar va mehyoriy hujjatlar, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari, sharq

mutafakkirlarining fikrlari, prezident I.A.Karimov asarlari, darsliklar, lar, ilmiy tadqiqot ishlari bo'yicha ilmiy-uslubiy ishlar va metodikalar tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishning metodlari. Mavzuga oid tarixiy, falsafiy, pedagogik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, tajriba-sinov, suhbat, kuzatish, so'rovnoma, qiyosiy pedagogik, matematik-statistik tahlil, tadqiqot natijalarini umumlashtirish.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi.

Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, to'rt paragraph, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. Yusuf Xos Hojibning ilmiy merosi va undan foydalanishning pedagogik asosi.

I -1.Yusuf Xos Hojibning ilmiy merosi haqida.

Tadqiqotchilarning fikrlariga ko'ra Yusuf Xos Hojibning tarjimai holini faqat uning o'z asarida yozib qoldirgan ma'lumotlardan bilamiz, xolos:

Mo'nuqi tarug'laq Qo'z o'rdu eli,
 Tub — asli nasabdin yurishish tili
 Bu tug'mish elindin chiqib borg'oni,
 Kitobni qo'shubon tugal qilg'oni.
 Barusin bitimish, eturmish nizom,
 Bu Qoshg'ar elinda qo'shulmish tamom.
 Qo'z o'rdu o'lkasi aslida eli,
 Tub asli nasabdan so'z ochdi tili,
 Tug'ilgan elidan chiqib borgani
 Kitobni jam etib tugal qilgani.
 Borini bitibdir ne esa kalom,
 Bu Qashqar elida tugadi tamom¹.

Yuqoridagi misralardan Yusuf Xos Hojibning tug'ilgan joyi Qo'z o'rdu (ya'ni Bolasog'un) ekani, ammo uni yozishda turli o'lkalarga safar qilgani va nihoyat uni vatani Qashqarda tugatgani taxmin qilinadi.

Demak, Yusuf Xos Hojibning Bolasog'unda tug'ilgan, o'z asarini yoshi ellikdan o'tganda yozgan, Asarning hijriy 462 (1069-1070) yozib tugallanganligi, uni o'n sakkiz oyda, ya'ni 461 yilning birinchi yarmidan

1.Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig («Saodatga boshlovchi bilim»). Ho-zirgi o'zbsk tilida bayon qiluvchi va so'zboshi muallifi Boqijon To'xliyov, Toshkent, «Yulduzcha», 1990, 5- bet (Qayum Karimov tayyorlagan nashrida esa «Buning eri (va) eli qut urdi (ya'ni yashnadi), Tub asli, nasl-nasabdan tili so'z ochdi» deb «Qo'z o'rdu»ni «Qut urdi» (deb berilgan). Qarang: Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (Saodatga yo'llovchi bilim). Tran-skriptsiya va hozirgi o'zbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorlovchi Qayum Kari-MOV. Toshkent, «FAN» nashriyoti, T., 1971, 57-bet.

boshlab, 462 yilning o'rtalarida tugatganligi, agar bu davrda Yusuf Xos Hojib 50 yoshlar atrofida bo'lsa, 410(1019 milodiy) yillarida tug'ilganligi taxmin etiladi.

Tegurdi menga elchi ellik yashim,
Qug'u qildi uzg'un tusi-teg bashim
(Ellik yoshim menga qul tegizdi,
Qora (quzg'un) tusidan boshimni
oq (qush) qildi (ya'ni sochim oqardi))².
Yil altmish eki erdi to'rt yuz bila
Bu so'z so'zladim man tutib jan sura,
Tugal o'n sakiz ayda aydim bu so'z,
O'yqurdim, adirdim so'z evdim tera⁴.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari 6500 baytdan yoki 13000 misradan iborat. Buyuk mutaffakir asarni yozib tugatgach, qoraxoniylar hukmdori Tavg'achxon (kitobda Tavg'ach Ulug' Bug'ra Qoraxon (xoqon), Abo Ali Hasan binni Sulaymon Arslon Qoraxon (xoqon) nomlari bilan zikr etilgan) huzuriga kelib, unga taqdim etadi. Kitob xonga manzur bulib, uning muallifiga Xos Hojiblik unvonini beradi. «Qutadg'u bilig»ni chinliklar (Xitoy) «Adab ul-muluk» («Hukmdorlar odobi»), mochinliklar (Sharqiy Turkiston) «Anis ul-mamolik» («Mamlakatning tartib usuli»), eronliklar «Shohnomai turkiy», Sharq elida «Ziynat ul-umaro» («Amirlar ziynati»), turonliklar «Qutadg'u bilig» ba'zilar esa «Pandnomai muluk» («Hukmdorlar nasihatnomasi») deb atagani kitob muqaddimasida keltirilgan.

Mazkur asarning shuhrat topishi bejiz emas edi. Chunki Yusuf Xos Hojib o'z davrining etuk mutafakkiri, chuqur bilimli, donishmand kishisi edi. Buni asarning mundarijasi va mazmunidan ham bilsak bo'ladi. U o'z asarida tibbiyot,

2. Yusuf Xos Hojibning. Qutadgu bilig. Nashrga tayyorlovchi Qayum Karimov. Toshkent «Fan», 1971, 115-bet. (Biz keltirgan manbalarda ana shu nashrga tayanamiz.)

3 Ko'rsatilgan asar, 949-6et.

falakiyot, tarix, tabiyot, geografiya, riyoziyot, handasa, falsafa, adabiyot, ta'lim-tarbiya, fikhga oid fikrlarni bayon etib, faylasuf va qomusiy olim sifatida o'zini namoyon etadi. Chunonchi u barcha ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi muomala, munosabatlarni yoritish bilan diplomatiyaga oid qoidalar tizimini yaratdi, turli kasb egalarining kasbkoriga oid talablar va jamiyatning axloqiy tamoyillarini tarannum etish bilan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos uslubni yaratdi.

“Qutadg’u bilig” — baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Demak, asar nomidan ham uning pand-nasihatlar, ta'lim-tarbiyaga oid, har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan etuk didaktik asar ekanligi yaqqol ko'rinib turibdi.

«Qutadg’u bilig»ning tadqiqotchilaridan biri B. To'xliiev ta'kidlaganidek, Yusuf Xos Hojib «Komil inson haqida gapirar ekan, kamolotning qator belgilarini ko'rsatib o'tadi. Ularning eng asosiysi alohida shaxsning o'z manfaatlari, shaxsiy istaklari doirasini yorib chiqib, boshqalar g'ami bilan yashashi, ko'pchilik manfaati uchun fidoyi bo'la bilishdir»⁵.

Hozirgacha «Qutadg’u bilig» ning Hirot, Qohira, Namangan nusxalari ma'lum bo'lib, Venaga keltirilgan Hirot nusxasini Hyorman Vamberi nashr qildi va tarjimasini berdi.

1890 yilda V. V. Radlov Vena nusxasining faksimilesini, 1891 yilda shu faksimile asosidagi matnini nashr qildiradi.

1896 yilda Qohira nusxasi topilgandan so'ng, undan ko'chirma olgach, V. Radlov har ikki nusxani qiyoslab, 1910 yilda rus grafikasiga asoslangan to'liq transkripsiyasini nemis tiliga tarjimai bilan nashr ettirdi.

1913 yilda esa uning uchinchi nusxasi Namanganda topilib, keyinchalik olimlar bu asarni tadqiq etishga kirishdilar.

Demak, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg’u bilig» asarini ilmiy jihatdan o'rganishga juda ko'p olimlar, hissa qo'shgan V. V. Radlov, H. Vamberi, S.

E. Malovlar uni tarjima etib, nashr qilgan bo'lsalar, V. V. Bartold, E. E. Bertels, I. V. Stebleva, O. A. Valitovlar har tomonlama tadqiq etdilar.

⁵ B.Tuxliev Yusuf Xos Hojibnig «Qutadg’u bilig» asarida so'zboshi.T.Yulduzcha nashriyoti. 1990 y.6-bet

Asarning mukammal nashrini tayyorlashda hamda uni tadqiq etishda o'zbek olimlarining xizmati, ayniqsa diqqatga sazovor.

Birinchi bo'lib professor Fitrat 1924 yilda Namaigan nusxasini olib, kutubxonaga keltiradi va u haqda maqola e'lon qiladi.

«Qutadg'u bilig»ning mukammal nashri o'zbek olimi K. Karimov tomonidan amalga oshirildi va tadqiq etildi. Uni tahlil etishda S. M. Mutalliboev, N. M. Mallaevlarning ham xizmati katta.

«Qutadg'u bilig»ning hozirgi o'zbek tilidagi bolalarbop bayoni esa Boqijon To'xliev tomonidan nashr etildi. Yusuf Xos Hojibning axloqiy didaktikasi K.Karimov, I. Jumaboev tomonidan har tomonlama tadqiq etildi.

Qoraqalpog'istonlik Arzieva esa «Yusuf Xos Hojibning pedagogik qarashlari» to'g'risida ilmiy ish olib bordi.

Arab istilosi to'rt asr mobaynida juda katta hududni qamrab oldi. XI asrga kelib butun turkiy hoqonlik xam amalda ularga tobe edi. Ammo bu hukmronlik bosib olingan xalklar madaniyatini tag-tomiri bilan quritib yubora olmadi. Aksincha, Sharqda hozirgi zamon Ovrupo olimlari "islom madaniyati" deb nomlagan bir madaniyat yuzaga keldiki, uning tarkibi arab, fors hamda turkiy qatlamlardan iborat edi.

"Qutadg'u bilig" ham mana shu madaniyat mevalaridan biri sifatida maydonga keldi. Yusuf Xos Hojib mazkur asarini hijriy 462 (melodiy 1069—1070) yilda yozgan.

Muallif "o'n sakkiz oyda aydim bu so'z" deb yozadi, demak, doston bir yarim yilda yozib tugallangan. Ushbu asarni Yusuf Xos Hojibning o'zi turkiy xalqlar yozma adabiyotining eng yirik obidasi sifatida shuhrat qozonganini hayoliga ham keltirmagan bo'lsa kerak. Unda yozma va og'zaki adabiyotning XI- asrgacha bo'lgan barcha an'analari o'z ifodasini topgan.

Asar matnidan ma'lumki, Yusuf Xos Hojib nihoyatda bilimdon, zamonasiga ma'lum bo'lgan barcha fanlardan yaxshi xabardor ko'rinadi. Asar misralari orasida bu fikrni dalillovchi faktlar juda ko'p. Jumladan, "Qutadg'u

bilig"da o'ttizdan ortiq kasb-hunar haqida ma'lumotlar bor. Uning misralarida fanning turli sohalariga oid atamalar ko'plab uchraydi. Faqatgina "Yilduzchilar bilan qatil-maqni ayur" ("Yulduzchilar bilgan aralashishni aytadi") deyilgan qismdagi ayrim misralarni keltiraylik:

Bilayin tesa sen o'qi handasa,

Achilgay saqish qapga chuila bosa.

Uqi zarbu qismat, tugal bil kasur,

Tugalka tugal imtihan al, etur.

Ya ta'zif, ya tansif o'zung etru bil,

Qali billing ersa, 'alad jazri qil.

Yana jam'u tafriq misahatqa o't,

Eti qat falakni ktur yamcha tut. .

Taqi qulsa jabru muqabil o'qi,

Ema Uqlidus qapgi etru to'qi.

ya'ni:

Sen uni bilayin desang, handasa (geometriya)ni o'qi,

Bu tufayli hisob eshigi ochiladi.

Zarbu qismat (ko'paytirish va taqsimlash)ni o'qi, kusur

(kasr hisobi)ni tugal bil,

Tugalga tugal imtihon, tadbir qo'lla

Yo taz'if (karra, ko'paytirish) oo'lsin, yo tansif (bo'lish,

taqsimlash) bo'lsin, o'zing etarli bil,

Agar buni bilib olsang, adad jazri (ildiz ostidagi sonni topish) bilan shugullan.

Yana jam'u gafriq (qo'shish va chegirish), masohat (sath, yuzani o'lchash usullari)g» o't,

Etti qavat falakni (ng sirlariki erda) yotgan xas kabi (engil)

bilib ol.

Tag'in istasang, jabru muhobil (algebra) o'qi,

Hamda Uqlidus eshigini tushunib qoq (ya'ni Evklidning

matematik nazariyasini chuhur bilgin).

Shoirning astronomiyaga doir kuzatishlari ham hayratlanarli. U tabobat ilmidan ham atroflicha bilim olgan. Yusuf Xos Hojibning kishi mijozi, turli kasalliklar, tabib va kohinlar, azayimxochlar va folbinlar haqidagi misralari shundan dalolat beradi, Ovrupo olimlaridan biri uni "Ibn Sinoning izdoshi" deb bejiz aytmagan.

Shoirning turli-tuman kasb-hunarlar bilan bog'liq fikrlari uning qiziqish chegaralarining ham nihoyatda keng bo'lganligiga dalolat. Tabiiyki, bular orasida san'at hodisalarining alohida o'rni bor. Kitobda shoirlar, olimlar, hunarmandlarga oid maxsus bo'limlar ajratilgan: Shuningdek, tasvirlar orasida "bezaklig saroy", "suratli qasr", "tugatilmagan surat", "o'yin", "qo'shiq" singari iboralarning uchrashi muallifning me'morlik, rassomchilik, muzika sohalaridan ham yaxshi xabardorligini ko'rsatadi.

Yusuf Xos Hojib bir necha tillarda gaplasha olgan yoxud chet tillardagi kitoblarni o'qiy olish imkoniga ega bo'lgan chamasi. Uning "Arabcha, tojikcha kitoblar o'qush (ko'p)",- deb ta'kidlashi bejiz emas. Ayrim hollarda "Neku ter, eshitgil, tajik bilgasi", yoxud "Bunga o'xshar endi toziy (arab)lar tili" deb yozishi ham fikrimizning dalilidir.

Umuman, X—XI asrlar turkiy hamda arab va fors-tojik adabiyotlaridagi taraqqiyot yo'nalishlarining o'zaro hamohangligi bilan xarakterlanadi. Xususan, fors-tojik adabiyoti bilan turkiy adabiyotning "Qutadg'u bilig" yozilgan davrdagi taraqqiyotida ularning obrazlar sistemasida ham, dunyoni badiiy idrok etish va uni tasvirlash printsiplarida ham ko'pgina yaqinliklar kuzatiladi.

Arab adabiyotining ta'siriga kelganda shuni aytish mumkinki, bu ta'sir ham turkiy adabiyotga "o'rtadagi ko'prik" orqali o'tgani ayondir. Arab, xususan, "Qur'on" mifologiyasiga aloqador bo'lgan obrazlar talqini fikrimizga dalil bo'la oladi.

"Qutadg'u bilig" — falsafiy-didaktik asar. Har qanday yaxshi badiiy asar ayni paytning o'zida bir necha vazifalarga bo'ysundirilgan bo'ladi. Yusuf Xos Hojib asari ham bundan chetda emas. Unda bir tomondan mamlakatni siyosiy

jihatdan jipslashtirish, qoraxoniylar davlatining iqtisodiy asoslarini mustahkamlash vazifasi olg'a surilgan bo'lsa, bo'lak tomondan mamlakat aholisini o'zaro ittifoqqa undash, eng yaxshi iisohiy hislatlarni targ'ib qilish, shoir sifatida qalbini hayajonga solayotgan masalalarni o'rtaqa qo'yish ham turadi. Bularning barchasini yuksak badiiylik asosida ado etish o'ziga xos vazifa bo'lganligiga shubha yo'q.

Yusuf Xos Hojib shoirlar haqida yozarkan, ularni "so'z teruvchilar" deb baholaydi. "Tillari qilichdan o'tkirroq", "xotir yo'llari qildan ham ingichkaroq" ekanligini alohida ta'kidlaydi. Qalam ahlini dengizga kirib gavhar, yoqut, inju olib chiqqan g'avvoslarga qiyoslaydi. Agar shu mezondan kelib chiqib baholaydigan bo'lsak, "Qutadgu bilig" ana shunday injularning o'ziga xos xazinasidir.

Bu xazina 73 tillo sandiq — alohida boblarga joylashgan. Yirik hajmli dostonlarda ko'zga tashlanadigan voqealarning epik bayoni "Qutadg'u bilig" uchun xos emas. Aniqrog'i, shoir bu erda mutlaqo yangicha yo'l tutgan. Unda ishtirok etadigan qahramonlarning "sarguzashtlari" asar boblarining o'zaro aloqasini ta'minlashning yagona va eng kuchli omili sifatida ko'zga tashlanmaydi. Aksincha, bu vazifa qahramonlarning ramziy ma'nolari orqali anglashiladigan vazifalari orqali amalga oshadi.

Gap shundaki, "Qutadg'u bilig" qahramonlari Kuntug'di, Oyto'ldi, O'gdulmish, O'zg'urmishlar elig (davlat boshlig'i), vazir, vazirning o'gli va uning qarindoshi sifatida ko'rinsa ham, ularning bosh vazifasi Adolat, Davlat, Aql va Ofiyat (salomatlik, qanoat)ni ramziy tarzda aks ettirishga bo'ysundirilgan.

Voqealar davomida Oyto'ldi bilan O'zg'urmish, ya'ni Davlat bilan Ofiyat emiriladi (halok bo'ladi), Kuntug'di (Adolat) bilan O'g'dulmish (Aql) esa tirik qolishadi. Mana shuning o'zida qanchalik kuchli ramziy ma'no borligi ko'rinib turibdi. Zukko kitobxonlarimizning o'zlari bularning mag'zini chaqib olishlariga ishonganimiz uchun ham izohni ortiqcha hisobladik.

Qahramonlar nomi ham ularning ramziy ma'nolariga uyg'un holda tanlangan. Kuntug'di — "tuqqan kun" demakdir. Kun — Quyoshning butun yil davomida mavjud bo'lishi uni Adolat bilan aloqalantiradi. Quyoshning har doim kurinib turishi borliqqa ro'shnolik, tabiatga harakat bag'ishlasa, Adolatning amal qilishi jamiyat ravnaqi, uning baxt-saodati yo'lida undan kam rolni bajarmasligiga ishora»

Oyto'ldi — "to'lgan oy" demakdir. To'lin oyning yog'dusi ravshan bo'ladi. Ayni paytda to'linlik Oyning tugashi bilan ham bog'liq. Har qanday davlatning muvaqqatligini eslatish maqsadida Oyto'ldining tanlangani bejiz emas.

"O'g'dulmish"ning o'zagida "o'g'" so'zi bor. Bu Aql demakdir. Uning "urug'", "qabila" ma'nosi ham bor. Shu ma'nodan o'sib chiqqan "ona" ma'nosi ham unga tegishli. Qadimgi turkiy tilda to'rt yoshdai katta bo'lgan hayvonlar, katta yoshli (ayni paytda aqli komil) insonga nisbatan ham bu so'zning qo'llanishi ko'p uchraydi. Adolat va Davlatning Aql bilan ham, el-yurt bilan ham aloqasi tabiiydir.

"O'zg'urmish" — uyqudan (gaflatdan) uyg'ongan, hushyor, hushyorlantiruvchi degan ma'noni bildiradi.

Asar qahramonlarining nomi qadim an'analar bilan chambarchas bog'liq. Turkiy xalqlarning juda ko'pchiligida Kun va Oy bilan bog'liq bo'lgan ertak, afsona, maqol va matallar saqlanib qolgan, ular bilan bog'liq ko'plab etnografik detallar ma'lum.

"Qutadg'u bilig"ning maydonga kelishi juda katta ijtimoiy hodisadir. U bir qator ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-tarixiy, estetik, etnografik, lingvistik hodisalarning to'g'ri tushunilishiga oydinlik kiritadi. Adabiy asar sifatida esa jahon adabiyoti taraqqiyotidagi alohida davrni tashkil etadi.

Asar janr xususiyatlariga ko'ra ham tamomila o'ziga xos. Ma'lumki, yozma adabiyotdagi dostonchilik an'analari "Qutadg'u bilig"dan boshlanadi. Yusuf Xos Hojib asos solgan dostonchilik maktabi Ahmad Yugnakiy timsolida o'z davomchisini topgan bo'lsa, keyingi asrlarda alohida xalqlar sifatida

shakllangan o'zbek, uyg'ur, turkman, ozarboyjon, turk (usmonli turk) va boshqa xalqlar adabiyotida yanada takomil topdi. Bu an'ana o'zbek adabiyotida, tabiiyki, Alisher Navoiy ijodida o'zining oliy cho'qqisiga ko'tarildi.

Doston masnaviy tarzida yozilgan — uning ikkitadan misrasi o'zaro qofiyalanib keladi:

Qamug' tengsiz ishdai yigigln o'eut.

Qamug' ezgu ishka ulag'li o'vut.

Bu ezgu nang ul bu o'vut, erka ko'r.

Qamug' zzgu nijy o'vut bo'ldi o'rchs.

Tili chin kerak, bo'lsa ko'ng'li ko'ni,

Budunqa asig qilsa, tugsu kuii.

Qali bo'lsa beklar xiyonat ko'ngul,

Budunqa asig bo'lmas, andin to'ngul...

Barcha noloyiq ishlardan tiyuvchi (narsa) andishadir,

Barcha xayrli ishlarga yo'llovchi (marsa) andishadir.

Andisha juda go'zal narsa, u kishi uchun chiroydir,

Barcha ezgu ishlar uchun anlisha boshbog' (bo'lib kelgan)dir.

Tili rost, ko'ngli to'g'ri, bo'lishi kerak,

(Toki) xalqqa manfaat keltirsa, (o'ziig ham) kuii tug'sa.

Agar beklar xiyonat ko'ngilli bo'lsalar,

Undan xalqqa manfaat bo'lmaydi, umid (ingii)uzgin.

Masnaviy orasida boshqa janr namunalari ham uchraydi. Unda ikki yuzdan ortiq to'rtlik, uchta qasida ham mavjud. Masnaviy orasida boshqa janr namunalarining keltirilishi Yusuf Xos Hojib kashfiyotidir. Faqat shu kashfiyotning o'ziyoq Yusuf Xos Hojibning she'riy iqtidori, uning shoirona mahorati, ijodkor sifatidagi jur'atiga yorqin ishoralarni bera oladi. Agar bularning hammasi nihoyatda yuksak darajadagi badiiyat talablariga to'la-to'kis javob berishini e'tibarda tutadigan bo'lsak, fikrimiz yanada oydinlashadi.

Yozma adabiyotimizdagi dastlabki to'la qonli qasidalar ham Yusuf Xos Hojibga tegishli. Uning qasidaları alohida tadqiq mavzui bo'la oladi.

Asardagi to'rtliklar ham alohida mavqega ega. Ular xalq to'rtliklari, shuningdek, yozma adabiyotning XI asrgacha bo'lgan shu janri bilan aloqador an'alarini yana bir pog'ona yuqoriga ko'taradi hamda klassik adabiyotimizda mashhur bo'lgan ruboiy janrining o'ziga xos turkiy zaminini tayyorlab beradi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ular to'rtliklarning ruboiyga o'tishidagi o'ziga xos adabiy ko'priklar vazifasini ado etdi.

I-BOB.I-2. “Qutadg’u bilig” asarining yaratilish tarixi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asari pedagogika tarixida ta’limiy axloqiy mavzuda yozilgan barcha asarlarning tamal toshi desak bo’ladi.

Yusuf Xos Hojib X asrning o’rtalarida tashkil topgan Qoraxoniylar hukmronligi davrida yashab ijod etdi. Qoraxoniylar Sirdaryodan Ertisovgacha, Shimoliy Farg’ona va butun Sharqiy Turkistonda hukmronligini o’rnatgandan so’ng Movarounnahrni ichki hududlariga ham kirib borib, Qoshg’ardan tortib Kaspiygacha bo’lgan keng maydonda o’z davlatini tarkib toptirgan edi. Uning markazi Qoshg’ar (O’rdukent) bo’lib, shimolda Bolasog’un (Quzurdu), g’arbda Samarqand, markazidagi Uzgand yirik shaharlardan hisoblanardi. Har bir davlatda bo’lganidek Qoraxoniylar davlatining ham idora qilish usuli, yurgizadigan siyosati, qonunlari, tarbiya tamoyillari ifodalangan qomus — nizomnoma zarur edi.

«Qutadg’u bilig» asari ham shunday zaruriyat tufayli yaratildi. Bu asarda qoraxoniylar davlatini mustahkamlash, uning idora usullarini yaratish, barcha tabaqa, toifadagi kishilarning xulq atvori, jamiyatda tutgan o’rni, davlatni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan mustahkamlash, davlat mustahkamligining bosh tayanchi — insonni ma’naviy kamolga etkazish masalalari qamrab olinadi.

Yusuf Xos Hojib bu murakkab vazifani hal etishda faqat donishmand, qomusiy mutafakkir sifatidagina emas, balki tarbiyashunos olim sifatida ham o’zini namoyon etdi. Shunga ko’ra u yaratgan «Qutadg’u bilig» asari ta’lim-tarbiya tarixi, uning nazariy masalalari, komil insonni shakllantirishda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

«Qutadg’u bilig» asarida hokimiyat qoraxoniylar qo’liga o’tishi munosabati bilan ta’lim va tarbiyaning ham hokimiyatni mustahkamlash va taraqqiy ettirish uchun xizmat etadigan o’ziga xos talab va tamoyillarini belgilash zarur edi. Shuning uchun ham mazkur asar didaktik, ya’ni ta’limiy-axloqiy uslubda yozildi.

O’sha davrlarda bunday asarlar (masalan, Nizom ul-Mulkning «Siyosatnoma», Kaykovusning «Qobusnoma») yozish an’anaga kirgan bo’lsa

ham, har biri o'ziga xos yo'l uslubga ega bo'lib. «Qutadg'u bilig» ulardan ancha oldin yaratilgandir.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari ta'limiy-axloqiy asar sifatida pedagogika tarixida eng yuqori o'rinlarda turadi.

«Qutadg'u bilig» asari Sharqda pandnoma yo'lidagi an'anaviy kitob tuzish tartibiga rioya qilgan holda tuzilgan. Avval nasriy muqaddima, so'ng 73 bobdan iborat kitobning mundarijasi beriladi. Dastlabki o'n bir fasli debocha bo'lib, hamd, na't va Qoraxonni madh etish, ta'lif maqsadi, etti kavokib va o'n ikki burj, tilning ahamiyati, muallifning uzri, ezgulik haqida, bilim olishning ahamiyati, kitobga nom berilishi, keksalikdan afsuslanish kabi fasllardan iboratdir. O'n ikkinchi fasldan boshlab asosiy voqea baen etiladi. Lekin asarda ma'lum bir syujet yo'q. Asar to'rt qahramon — Kuntug'di — adolat ramzi, vazir Oyto'ldi — davlat va baxt ramzi, vazirning o'g'li O'gdulmush — aql ramzi sifatida, O'zg'urmish — vazirning qarindoshi — qanoat timsoli o'rtasidagi munozara asosida hayotiy masalalar bir-biriga bog'langan holda bayon etilib, kitobni yozishdan o'z oldiga qo'ygan maqsadga bo'ysundiriladi.

«Qutadg'u bilig» Qayum Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek «Adabiy asar, badiiy adabiyotning tipik namunasi. Lekin u epopeya ham emas, to'lig'i bilan lirik ruhda ham emas. U axloq va odob, ta'lim va tarbiya hamda ma'lum ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini, usullarini, chora-tadbirlarini mujassamlashtirgan qomusdir ... bu asar tom ma'nosi bilan didaktik ruhda yozilgan ta'lim-tarbiya, odob-axloq va hikmat darsligidir»⁶.

Kuntug'di nomli Elig adolat bilan hukmronlik qiladi, u xalqparvar xoqon, o'z davlatini aql-zakovat, bilimga tayanib idora etadi va olamga dong taratadi.

Oyto'ldi aqli barkamol yigit, u Elig sinovida o'zining aqliy barkamolligini namoyon etib, vazirlik lavozimini egallaydi. U el-yurtni yashnatgan bir paytda xastalanib, o'limi oldidan o'g'liga pand-nasihatlar beradi. O'gdulmish otasi o'rnida Eligning xizmatiga kiradi va aqli, zakovati, bilimi, yaxshi xulq-atvori bilan ham Eligning, ham elu xalqning e'tiborini qozonadi.

⁶ Karimov Q. Ilk badiiy doston. Toshkent, "Fan", 1976, 21-22-betlar

Davlat ishlari «ko'paya borgani tufayli Kuntug'di — Elig O'gdulmishdan unga yordam bera oladigan biror kishi bormi, yo'qmi, deb so'raydi. O'gdulmish unga O'zg'urmish degan o'ta zukko, aqlli qarindoshi borligi, ammo u tarki dunyo qilganligini aytadi. Shunda Kuntug'di uni — O'zg'urmishni topib kelishni buyuradi. Ammo O'zg'urmish ikki marta ham taklifni rad etadi, faqat uchinchi marta Elig uni xizmatga emas, bunday odamni bir ko'rib, u bilan suhbat qurish orzusida ekanligini aytadi. Shunda O'zg'urmish rozi bo'ladi va Elig bilan uchrashadi. Ular o'rtasida ma'lum suhbat va ziyofatdan so'ng, O'zg'urmish yana o'z joyiga qaytib ketadi.

O'gdulmish keksayib qolgandan so'ng O'zg'urmishning huzuriga boradi va tarki dunyo qilish kerakmi, yoki davlat ishlarini bajarishni davom ettirishi zarurligini so'raydi. O'zg'urmish unga dunyo ishlari bilan mashg'ul bo'lishni maslahat berib, qaytarib yuboradi. Tez orada O'zg'urmish og'ir dard, bilan bemorlanib, olamdan o'tadi.

Ana shu to'rt qahramonning suhbatlari, munozaralari asosida Yusuf Xos Hojib o'z maqsad va g'oyalarini bayon etadi.

Masalan, Oyto'ldining Elig bilan uchrashuvida uning Elig sinovidan o'tishi jarayonidagi savol-javoblar natijasida davlatning sifati va fazilatlari, uning bevafoqligi va bebaholigi, shuningdek, el-yurt boshqaruvchilarining hislatlari bayon etiladi.

Oyto'ldining o'g'li O'zg'urmish bilan Eligning suhbatida esa saroy amaldorlari: beklar, vazirlar, lashkarboshilar, hojiblar, elchilar, sarkotib, xazinador, dasturxonchilar, sharobdorlar, beklarning o'z xizmatkorlariga munosabati qanday bo'lishi kerakligi bayon etiladi.

O'gdulmish bilan Uzg'urmish munozaralari, Elig bilan O'zg'urmish munozarasida esa insoniy xislatlar, xizmat va turmush odoblari borasida fikrlar bayon etiladi, turli kasb egalari vasfi beriladi.

Ko'rinib turibdiki, «Qutadg'u bilig» dagi bosh g'oya — insonni hayotda baxt-saodatga eltuvchi asosiy qarashlari to'rt ramziy qahramon: Kuntug'di — Elig podsho, adolat timsoli, Oyto'ldi — vazir, davlat timsoli, Ugdulmish —

vazir, aql timsoli, Uzg'urmish — vazirning qarindoshi, qanoat timsolining hayoti va davlatni boshqarishi jarayonidagi xatti-harakatlari va fikrlari orqali berilganki, bular inson kamolotining muhim mezonlari sanaladi.

Yuqorida eslatganimizdek, Yusuf Xos Hojibning asarida inson kamoloti masalasi markaziy masala bo'lib hisoblanadi. Mazkur asarda insonning jamiyat va hayotda tutgan o'rni, burch va vazifalari haqidagi muammolar o'ziga xos bir tarzda bayon etiladi.

Mutafakkir kitobning an'anaviy boshlanmasidan keyinroq insonning haqiqiy baxti bilimda ekanligini bayon etadi. Yana ilm-zakovatning ahamiyati haqida qator boblarda ham fikr yuritish bilan birga unga alohida boblar ham bag'ishlangan. Lekin olim faqat ilm-ma'rifatning ahamiyatini ko'rsatibgina qolmaydi, u bilim va zakovatning amaliyotdagi o'rnini ham yoritadi.

U bilimni buyuk, o'quvni ulug' deb ta'riflaydi. Chunki zakovatli inson ulug' bo'ladi, bilimli kishi buyuk bo'ladi, deb, ilimli kishilarni asl toifadagi kishilarga qo'shadi. Olim ezgu ishlarining barchasi ilm tufayli amalga oshirilishi mumkinligini aytadi, Usha davrdayoq olim «Bilim hatto osmon sari yo'l ochur» deb bashorat qiladi.

U dunyoda odam paydo bo'libdiki, faqat bilimli kishilar-gina ezgu ish qilib, adolatli siyosat yurgizib kelgan, deb, inson yaratilgandayoq unga bilim, uquv-zakovat berilganligi, ana shu bilim va zakovati tufayli kishilar razolatdan poklanganligini uqtiradi. Hatto-hukmdorlar ham yurti, davlatni aql, ilm, zakovat bilan idora etsa, el-yurt farovon bo'ladi, to'q va tinch hayot kechiradi, deydi. U kuch va qurolni aql va bilimdan keyingi ikkinchi o'ringa qo'yadi.

Torutti odurdi sechu yangluqug'

Angar berdi erdem bilig ochuqug'

Kongda berdi ham; ma yuritti tylig;

Ovut bzrtsi qilq ham qilinchi silig

Bilig berdi yangluq bedo'di bu:kun

Uqush berdi otru yaz'ld tugun

M a z m u n i

Sechu (ya'ni har erda ma'lum xudo) insonni yaratti, tanladi,

Unga hunar, bilim va uquv berdi.

O'sha ko'ngil (ya'ni aql) berdi, tilini yo'riq (ravon) qildi,

Andisha, xulq hamda go'zal fe'l ato qildi,

Bilim berdi (shu tufayli) inson bu kun ulug'likka erishdi,

O'quv berdi, so'ng (shu tufayli berk) tugunlar yozildi.⁷

Yusuf Xos Hojib ilmli, ma'rifatli kishilarni qadrlash kerak, chunki ular mash'al kabi yo'lni yoritib, to'g'ri yo'l ko'rsatadi, yaxshi-yomonni farq etishni o'rgatadi, deydi:

Taqi bir qutu bilga, olimlar ul,

Ular ilmi xalqqa yaruttachi yo'l.

Ularig' qatig' sev, ag'irla so'zin,

Biliglarin o'gran o'gush ya azin.

Usa ilmi o'gran, biliglari bil,

Nangin ezgulik qil, ko'daz bekru til.

Ayt, ilmy ishlat, tilin so'ngdama,

Ya qilqin, qilinchin yafuz teb tema.

M a z m u n i

Yana bir toifa olimlar bo'lar,

Ular ilmi xalqning yo'lin yoritar.

Ularni juda sev, qadrla so'zin,

Bilimlarin o'rgan, ko'pin ham ozin.

Ular ilmin o'rgan, bilimini bil,

Berib hadyalar, hech dag'al qilma til.

Ilmlarin ishlat; va g'iybatlama;

Fe'li atvorin hech yaramas dema⁸.

⁷ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. 84—85- betlar.

⁸ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. 649—651- betlar.

Yusuf Xos Hojib olimlarni hurmat etish kerakligini ta'kidlab, ilm ahlini qadrlasa, ilmsizlarni johil kishilar deb biladi.

Dunyoda inson bilim va zakovati tufayli orzu-tilaklarga, ulug'likka erishishi mumkinligini aytadi.

Lekin shunday bilim va zakovatning qadriga faqat xuddi o'zlariga o'xshagan donolar va zakovatlilar etadi, johil va nodonlar bunday xislatlarga ega emas, deydi. Chunki jamiyatdagi barcha xatolar bilimsizlik, nodonlik, jaholat tufayli sodir bo'lishidan u qayg'uga tushadi, hayotda nodon va johillar ko'payib ketganligidan afsuslanadi.

U yurtning idora etuvchi va xalqni boshqaruvchilarni ikki toifaga bo'lib, birinchisi adolatli siyosatni yurituvchi beklar va ikkinchisi dono olimlar deydi. Chunki siyosatchilar yurtning boshqarsa, olimlar ma'rifiy yo'l-yo'riq ko'rsatadi.

Olim bilimni ziyoga, tengi yo'q javohirga o'xshatib, u insonni yuksaltiradi, jahonning sir-asrorini bilib olishiga yordam beradi, deydi. Insoniyat nimaga erishgan bo'lsa, bilim tufayli erishganligini ta'kidlaydi. Ammo bu boylikni hech kim o'g'irlay olmaydi, deb, bilim va zakovatni muqaddas do'st, mehribon qarindosh, kiyim va oziq sifatida ta'riflaydi.

Lekin Yusuf Xos Hojib ilm-fanni egallashni targ'ib etibgina qolmaydi, uni hayotga tatbiq etish, amalda qo'llay bilishga ham da'vat etadi.

Yusuf Xos Hojib insonga xizmat etmagan ilmni dengiz tubida foydalanilmay yotgan injuga o'xshatadi. Shuningdek, er ostida yotgan oltinni ham qazib olinsa, beklar boshiga toj bo'lganidek, ilmni ham foydali narsalarga sarf etishga da'vat etadi:

Kishi ko'ngli tubsiz tenkiz—tek turur,
 Bilig yunju sani tubinda yatur.
 Tengizdin chiqarmasa yunju kishi,
 Kerak yunju bo'lsun, kerak say tashi.
 Yag'iz er qatindaqi altin tash ul,
 Qali chiqsa beglar bashinda tush ul.

Biliglig chiqarmasa bilgin tilin,
 Yarutmaz aning ilmi yatsa yilin.
 Uqushli, biliglig ezi ezgu nang,
 Qali bo'lsang ishlat, uchub ko'kka teng.

Mazmuni

Kishi ko'ngli tubsiz dengizdek erur,
 Bilim inju kabi tagida yotur.

Dengizdan chiqarmasa inju kishi,
 Nafi yo'q, u inju go'yo soy toshi.
 Etar nafsiz oltin qora er quyi,
 Agar chiqsa beglar boshida joni.
 Olim ilmiga qilmasa gar amal,
 Ziyo sochmagay ilmi hech bir mahal.
 Bilim va zakovat — juda ezgu kuch,
 Agar topsang ishlat va ko'klarga uch⁹.

Olim bilimlilik va bilimsizlikning oqibatlari haqida ham fikr yuritadi. Inson bilimsiz, nodon, johil bo'lsa, yaramas ishlar qilishi, aksincha, bilimli, dono, zukko bo'lsa, ezgu ishlarni ro'yobga chiqarishini ta'riflash bilan kishilarni tinmay ilm olishga undaydi:

Uqushlug' ked er ivke o'zdin yirat
 Biliglig yeg er bushma edgu qml at.
 Bu ekki byla ishke baqma eve
 Qalo` baqsa qilding tiriglik yava
 Uqunglug balur tutish uvke ishi
 Yazuqlug' bolur ishda bushsa kishi
 Uqushlug' kerek ked udursa bilig
 Biliglig kerek ked bitursa ishig.

⁹ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. 92-93- betlar.

M a z m u n i

(Ey) zakovatli yaxshi kishi, g'azabni o'zingdan yiroq tut,

Ey bilimli yaxshi kishi, qahr qilma, nomingni ezgu qil.

Bu ikkisi (g'azab va qahr) bilan shoshilib ish ko'rma,

Agar (shunday) qilsang, tiriklikni behuda qilasan.

G'azabli kishi doim o'kinchli bo'ladi,

Kishi ishda qahr qilsa, u adashadi.

Kishi zakovatli bo'lishi kerak, toki bilimni yaxshi

tanlay bilsa,

U bilimli bo'lishi kerak, toki ishlarni yaxshi

bitira olsa¹⁰.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, buyuk alloma mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, moddiy va ma'naviy yuksalishida, elu xalqning boy va farovon turmushi — barchasi ilm va ma'rifatning ravnaqiga bog'liq ekanligini to'g'ri va ishonarli dalillar bilan badiiy ifodasini bera olgan va o'zi ham ana shu ezgu ishni amalga oshirish uchun tinmay faoliyat ko'rsatgan. Yusuf Xos Hojib ilm va fan, aql-zakovatga ega bo'lishga inson ma'naviy kamolotining eng muhim va birinchi mezoni sifatida qaraganki, uning bu fikrlari hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Yusuf Xos Hojib insonga bilim nechog'lik zarur bo'lsa, kasb-hunar egallash ham shunchalik muhimligini asarida alohida ta'kidlaydi. Shunga ko'ra u asarda turli toifadagi kishilar borasida fikr yuritir ekan, hunarmandlar haqida ham iliq fikrlar bayon etadi.

Taqi bir qutusi bu uzlar turur

Tirilgu tilab o'zke uzluq qilur

Temurchi, etukchi yene qirmachi,

Ya so`rgo` bedizchi ya oqchn yacho`

¹⁰ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. 108-109- betlar.

Bularning bile ma qato`l ham qaro`l

Sevindur ularig' sevinchin tiril.

M a z m u n i

Tag'in bir toifa odamlar hunarmandlardir

Uzlariga yashash uchun zarur narsalarni istab

hunarmandchilik qiladilar.

Termirchi (lar), etikchilar (ya'ni kosiblar)

hamda qymakor-duradgor(lar),

Yo bo'yoqchi(lar), rasomlar, yo o'qsoz-yoysozlar,

Bular bilan ham aralashgin va qo'shil,

Ularni sevintir, (o'zing ham) sevinch bilan hayot kechir¹¹.

Yusuf Xos Hojibning o'sha davrda kosib-hunarmandlarga naqadar xayrixohligi o'z-o'zidan emasdi. Chunonchi davlatning tinch-osoyishtaligi,

jahonda tutgan mavqei, boyligi va xalqning farovonligi ana shu toifadagi kishilarga bog'liq edi. Zero, kasb-hunar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, moddiy va madaniy taraqqiyotining o'lchov birligi sanalardi.

Yusuf Xos Hojib jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligida muhim o'ringa ega bo'lgan dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar, tabiblar, olimlar haqida ham muhim fikrlar bayon etadi va har birining jamiyatdagi o'rnini ko'rsatib beradi.

Chunonchi, dehqonlar va chorvadorlarning ham ijtimoiy, iqtisodiy hayotda tutgan o'rnini yuqori baholadi va ular mehnati eng halol, sharaflil, muqaddas ekanligini ta'riflaydi.

Ko'rinib turibdiki, olim jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shgan har bir kasb-hunar egasini ulug'laydi va ularni qadrlash zarurligini ta'kidlaydi.

Yusuf Xos Hojib insonni kamolga etkazishning ya'na bir va eng muhim tomoni uni ahloqiy kamol toptirish deb qaraydi. "Qutadg'u bilig"ning

¹¹ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. 666-667- betlar.

mundarijasi, mazmunidanoq biz uning pand-nasihat, o'git, ta'lim-tarbiya, ahloq va odob, aql va hikmat haqidagi asar ekanligini qayd etgan edik. Muttakkir o'zining ahloqiy qarashlari, ya'ni ijtimoiy munosabatlar, jamiyatning barcha tabaqalari o'rtasidagi ahloqiy munosabatlarni amaliyotga tayangan holda yoritadi. Bu ahloqiy xulq-odob tamoyillari, talab va vazifalari butun asar davomida qahramonlarning o'zaro munozaralari asosida ifodalanadi. Unda Elig (xon), uning xizmatidagi barcha tabaqa va toifa vakillari, ijtimoiy guruhlarining o'zaro munosabati, ahloqi, muomalasi talablari bayon etiladi. Turli kasb egalari xos xislatlar, odatlar yoritiladi.

Asarda ilgari surilgan axloqiy xislatlarni sanab o'tish olimning ta'lim-tarbiya. Ahloqiy masalalarini qay darajada chuqur bilganligidan dalolat beradi: insoniylik, rostgo'ylik, to'g'rilik, soflik, mehr-muhabbat, vafo, shafqat, muruvvat, insof, adolat, ishonch, sadoqat, xushmuomalalik, shirinso'zlik, soxovat, mardlik, himmatlilik, tavoze, hurmat va ehtirom, tadbirkorlik, aql, zakovat, halollik, ezgulik kabi hislatlar ulug'lanadi, ularga yolg'onchilik, noinsoflik, fisqu fasod, bevafolik, mehrsizlik, dag'allik, baxillik, nomardlik, quvlik, hurmatsizlik, nodonlik, johillik, haromxo'rlik, ochko'zlik kabi xislatlarni qiyoslab, ezgu xislatlarning yaxshi oqibatlari va salbiy xususiyatlarning yomon oqibatlarini misollar vosita-sida ishonarli qilib bayon etadi.

Bunda dastlab, barcha yaxshi ishlarning manbaini ezgulik, yomon ishlarning asosini essizlik nomlari bilan talqin etadi. U inson hayotda qilgan ishi bilan yo yaxshi nom qoldiradi, yoki yomon nom oladi, deydi. Asarda olim barcha ezgulikning boshi til deb qaraydi. Asarning bir bobi til odobi, uning foyda va zararlariga bag'ishlanadi. Til insonning qadr-qimmatini oshiradi yoki shu til orqali inson yuz tuban ham ketishi mumkin, deydi. Kishi ikki narsa bilan hayotda mangu qoladi: biri xush-xulqlik bo'lsa, ikkinchisi yaxshi so'z, deydi olim. Uning til haqida, so'z haqida aytgan fikrlarining har biri hikmatli so'zga aylanib ketgan. Kumush va oltin tugaydi, ammo so'z muomalaga kiritilsa, oltin va kumush qozoniladi, oz so'zlash, lekin ko'p tinglash kerak, hech kim ko'p

so'zlab olim yoki dono bo'lmagan, qizil til qora boshning yovi, avval o'ylab keyin so'zlash kerak kabi ma'nolarni uning

Omonlik tilasang agar sen o'zing,
Tilingdan chiqarma yarog'siz so'zing.
Qizil til qilar qisqa yoshli seni,
Omonlik tilasang avayla uni.

So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin,
Tilingga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin.

Zehn ko'rki so'zdir, bu til ko'rki so'z
Kishi ko'rki yuzdir, bu yuz ko'rki ko'z¹².

kabi hikmatlarga aylangan fikrlaridan bilsak bo'ladi.

Insoniy munosabatlarning eng oliy mezoni sanalgan hurmat va ehtiromni tarkib toptirishning barcha ko'rinishlari asarda o'z ifodasini topgan. Yusuf Xos Hojib jamiyat taqdirini hal etuvchi eng ulug' mansabdorlardan tortib, oila a'zolarigacha bir-biriga bo'lgan muomala-munosabat masalalarini ham hayotiy misollar vositasida yoritadi. Katta yoshlilarning kichiklarga, kichiklarning ulug'larga, amaldor va mansabdor-larning o'z xizmatchilariga, xizmatchilarning o'z xo'jalariga, turli ijtimoiy guruh a'zolarining bir-birlariga, oilada oila a'zolarining bir-birlariga muomala madaniyatining eng oddiy ko'rinishlarigacha tasvirlab, kishining ko'z oldida yaqqol iamoyon etadi. Buni biz farzand tarbiyasida, uning tug'ilganidan boshlab xulq-odob qoidalarini, bilim va hunarni o'rgatish, buning uchun pok va bilikli muallim-murabbiy tanlash, farzandning xatti-harakatini doimo nazoratda saqlash kabi masalalarning bayon etilishidan ham bilsak bo'ladi.

¹² Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. 87—88- betlar.

Olim ulug'lar va kichiklar o'rtasidagi xulq-odob qoidalari haqida gapirar ekan, shu asnoda kamtarlik, salomlashish odobi talablari, qoidalarini ham tavsiya etadi.

Ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning amaldorlar axloki haqidagi o'g'itlari diqqatga sazovor va uning bu fikrlari hozirgi davrda ham qimmatli sanaladi. Olimning beklar, hojiblar, vazirlar, saroyboshilar, elchilar, lashkarboshilar, devonboshilar, xazinadorlar, sarkotiblar kabi ko'plab amaldorlarning xatti-harakatlari, ish yuritishlari, xulq-odobi haqidagi amaliy o'g'itlari va yo'l-yo'riqlari har bir amaldor uchun dastur sanaladi. Masalan, har bir amaldorning o'z ishining ustasi, ilm-fanni egallagan, uning turli sohalari borasida fikr yurita oladigan, so'zga chechan, zehnli, fahm-farosatli, himmati baland, ko'zi to'q, ochiq qo'l, saxiy, tadbirli, zukko, hushyor, jiddiy, qanoatli, jasur, sog'lom, samimiy, sadoqatli, o'z so'zi ustidan chiqadigan, andishali, she'r bahsida ishtirok etib, o'zi ham she'rlar to'qiy oladigan, turli tillarni bila oladigan va o'zi ham shu tillarda gaplasha oladigan, turli yozuvlarni bila oladigan va yoza oladigan, nard, shatranj, chavgon o'yinlarida o'ynay oladigan, merganlik kabi xislatlarga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, har bir insonning kamolga etishida to'sqinlik qiladigan yomon illatlar, nuqson va kamchiliklardan birinchi navbatda el-yurt xizmatida bo'lgan amaldorlar ham xoli bo'lishi lozimligi uqtiriladi: maishat, ishratparastlikka berilish, kek, gina, adovat, nizo, xusumat, fisqu fasod, maishiy buzuqlik, mayparastlik, kayfu safoga berilish, mutakabbirlik, xiyonat, davlat ketidan quvish, manfaatparastlik, xudbinlik, boshqalarning haq-huquqini toptash, ta'magirlik, haqorat kabilar shunday illatlar ediki, buning natijasida davlatning rivojiga putur etkazib, jamiyatni ma'naviy qashshoqlikka olib boradi, deb bunday yomon illatlardan tiyilishni maslahat beradi. Masalan:

Suchigka suchinsyo ajun beglari
 Achig' boldi el kun budun iglari
 Oynuqa avinsa ajun tutg'uchn
 Elin buzdi boldi o'zi qultg'uti.

M a z m u n i

(Agar) dunyo beglari ichimlikka (maishatga berilsa),
El va xalqning dardlari (qismati) achchiq bo'ladi.
Jahongir kishi aysh-ishratga mahliyo bo'lsa,
Elini buzadi (xarob qiladi), o'zi (esa) tilamchi bo'lib qoladi.

Yusuf Xos Hojib takabburlik, mag'rurlanish, kekkayishga kamtarlik, xushsuxanlik, xushfe'llikni qarshi qo'yadi. Shuningdek, amaldorlarning himmati baland, muruvvatli, samimiylik xoh katta, xoh kichik bo'lsin, xos fazilat ekanligini alohida ta'kidlaydi. Insonning haqiqiy boyligi uning ko'z va ko'ngil to'qligi deb baho beradi alloma. Zero, ochko'zlik, ta'magirlik insonda poraxo'rlik kabi yomon illatning tomir otishiga olib keladi, deydi.

Yusuf Xos Hojib oilaviy-maishiy turmush muammolariga ham katta e'tibor beradi. U kishilarni uylanib, oila qurishdan boshlab, farzand tarbiya etish, oilaning moddiy ta'minotini yuritishgacha bo'lgan eng zaruriy vazifalarni birma-bir bayon etadi. Shuningdek, yigitlik va keksalik fasllari haqida ham fikr yuritib, yigitlikni ehtiyot qilish, yigitlik davrida qarilikning g'amini eyish kabi eng zaruriy narsalar haqida tavsiyalar beradi.

Yusuf Xos Hojib insonning haqiqiy kamolga etishida aqliy va ahloqiy tomondangina emas, jismoniy tomondan ham sog'lom bo'lishi kerakligiga katta e'tibor beradi.

Uning tibbiyotga oid fikrlari hayotiy muammolar bilan uyg'unlashib ketib, bir butun ta'limot sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, olamni u to'rt unsur — o't, suv, havo, tuproq (yoki issiq, sovuq, ho'l, quruq) dan iborat deb, kishi mijozini ham to'rtga bo'ladi (qizil, sariq, oq va qora). Mavsumiy o'zgarishlarning inson mijoziga ta'siri natijasida turli kasalliklarning paydo bo'lishi, inson o'z mijozining shulardan qaysinisiga to'g'ri kelishi va shunga qarab oziq-ovqat tanlashi kabilar insonning salomatligida muhim ekanligini bayon etadi.

Shuningdek, olim insonning turli marosimlar, yig'inlar, uchrashuvlar, ziyofatlarda o'zini tutishi, xulq-odob qoidalariga rioya etishi haqida ham fikr yuritib, insonning mezbonlik va mehmonnavozlik qoidalari, shartlari, tartib-intizomlari haqida ham muhim o'g'itlarni beradi. Masalan, «Qutadg'u bilig» dagi elchilar (diplomatlar) huzurida, shohlar saroyida, to'y va azalarda qilinadigan mehmondorchiliklarda kishi o'zini qanday tutishi, xatti-harakati, odobi masalalari hozirgi davrda ham o'ta dolzarbdir.

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Xos Hojibning biz tahlil etgan mazkur asari insonni har tomonlama kamolga etkizishning barcha masalalari o'zining badiiy ifodasini topgan yirik ta'limiy-axloqiy dostonidir. Olim insonni kamolga etishi uchun quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Aqliy kamolot—bilim va zakovat, uquvga ega bo'lish.
2. Axloqiy kamolot.
3. Jismoniy kamolot.

Yusuf Xos Hojib insonning kamolga etishining yo'l-yo'riqlari, usullari, chora-tadbirlarini yuksak badiiy mahorat bilan yoritib beradi. Shuning uchun ham bu asar o'zining ilmiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyatini shu paytgacha saqlab kelmoqda.

II-BOB. Boshlang'ich ta'lim jarayonida Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asaridan foydalanishning shakl va usullari.

II-1. Boshlang'ich sinflarda “Odobnoma” fanini o'qitishning ilmiy va milliy asoslari.

“Biz sog'lom avlodni tarbiyalab voyaga etkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda faqat jismoniy sog'liqni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz”¹³

Islom Karimov.

Odob-tarbiya, go'zal axloq nazokatlilik demakdir. Odob tushunchasi va uning mazmuni haqida juda ko'p qoidalar, ta'riflar mutafakkir, ma'rifatparvarlar tomonidan berilgan.

Jumladan, Ahmad Yugnakiy shunday yozgan ekan: «Odobli bo'lishga yondoshib (o'zingni) kamtar tut, tartibli kishilarga ozod jon go'l bo'lsin» («Hibatul haqoyiq»).

Alisher Navoiy odobga quyidagicha ta'rif bergan edi: «Adab kichik yoshlarni ulug'lar duosig'a sazovor etar va ul duo barakati bila umrdin barhurdor. Adab va tavazu do'stlig' ko'rgusida jilo berur, ikki jonibdin yorug'liq etkurur» («Mahbubul qulub» dan).

Voiz Koshifiy fikricha: «Odob — bu qalbni yomon so'zlardan va nojo'ya xulqdan saqlab qolish, o'zini va o'zgalarni ham hurmat qila bilish, shu bilan birga o'zini va o'zgalarni ham obro'sini tushurmaslikdir» («Axloqi Muhsiniy» asaridan).

O'tmishda odobnoma fan sifatida maktab va madrasalarda o'qitilgan. Unda quyidagi asarlardan foydalanganlar: Imom Taqoviyning «Aqoid», Abdurahmon

Koyaning «Islom axloqi», az-Zamaxshariyning «Osariy axloq», A.

Avloniyning «Turkiy guliston yohud axloq» va hokazo.

Yuqoridagi asarlarni o'rgatishdan bosh maqsad yosh avlodni yuksak ma'naviy fazilatlar egasi qilish, uning qalbiga yaxshilik urug'ini sepish, islom ma'naviyati, urf-odatlarini o'rgatish, imon, e'tiqodegasi qilib tarbiyalashdir.

¹² Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat engilmas kuch” T. “Ma'naviyat”, 2008

Odob — xalqimizning boy milliy merosida, xalq og'zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklarida o'ziga xos va mos adablilik g'oyalari, fazilat va qadriyatlariga ega.

Odob hayotdan o'qish-o'rganish, oila tarbiyasi zahirida paydo bo'ladigan muomila-munosabatlar majmuasidir. Odob insonlarni ruhiy holatlarini aks ettiruvchi madaniy munosabatlar tizimidir. Odob va axloq tushunchalari chambarchas bog'liq bo'lib, insonning axloqi mavjud qonun va qoidalar me'yoriy talablarini bajarishda o'z ifodasini topadi.

Odobnoma fanining asosiy manbalari:

- xalq og'zaki ijodi qirralari;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlar;
- xalq pedagogikasi;
- diniy-ma'naviy tarbiya;
- mutafakkir va ma'rifatparvarlarning asarlari;
- odob durdonalari (pandnoma va nasihatnomalar);
- o'zbek oila pedagogikasi;
- Prezident I. Karimov asarlari;
- milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasiga doir asarlar.

Shaxsning ma'naviy barkamolligi xalq pedagogikasida, diniy ma'naviyatda, pedagogik qadriyatlarda alohida e'tiborga sazovor bo'lib kelgan. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalda qo'llashda «Ta'limning yangi modeli» jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishga olib keladi. O'zining qadr-qiymatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega.

Odobnoma fanining maqsadi:

- milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillari dasturi doirasida o'quvchilar qalbida mustaqillik g'oyasiga sadoqat hissini tarbiyalash;
- barkamol avlodga xos odoblilik san'ati va madaniyatini o'rgatish;
- o'zbek xalqining milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarini amalda qo'llash malakalarini shakllantirish.

Mustaqillik sharofati tufayli boshlang'ich sinflarda "Odobnoma" fanining o'ziga xos va mos mazmuni va tizimini yaratishga erishildi.

"Odobnoma" «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanining dastlabki bosqichi bo'lganligi sababli quyidagi talablarga amal qilmoq lozimdir.

Odobnoma fanini o'qitishga qo'yiladigan asosiy talablar:

- insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida madaniy, ma'naviy, milliy merosdagi avlod-ajdodlarimizdan qolgan odob-axloq haqidagi bilimlardan boxabar qilish;

- Markaziy Osiyo mutafakkir va ma'rifatparvarlarining asarlaridagi hikmat, o'git va nasihatlarini o'rgatib, ularga amal qilishni uqtirish;

- tabiatga to'g'ri munosabatning mohiyati, tabiatni muhofaza qilish insonning burchi ekanligi, ekologik nochorlikka olib keladigan sabablarni anglash va baholash bo'yicha bilimga ega bo'lish;

- ota-ona, Vatan oldidagi burchni anglash va unga sodiqlik nima ekanligini bilish;

- o'z-o'zini anglash shart-sharoitlarini, inson, qadri va hurligini anglash, uning tabiatini, milliy va umuminsoniy madaniyatni, ona tilni saqlash, ma'-naviy taraqqiyotni bozor iqtisodiyoti bilan uzviy rivojlanishini tushunib etish;

- yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo'lish, yaxshini yomondan ajrata olish bilimiga ega bo'lish;

- ta'lim-tarbiya jarayonida beriladigan bilimlar yaxlit va ijtimoiy shart-sharoitlar, milliy va tarixiy ma'naviy omillar, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini tushuntirish;

- o'quvchilarni bilim olish bilan birga yuksak insoniy komillik mohiyatini tushunib amal qilishga o'rgatish;

- odobnoma darslarida ma'naviy, ma'rifiy, iqtisodiy, huquqiy, kasbiy tushunchalarning mohiyatini uzluksiz anglatib borish muhimdir.

Odobnoma fanidan beriladigan tushunchalar:

1-sinf o'quvchilariga:

— Odobiylik sifatлари — salomlashish, «Assalomu alaykum», «Vaalaykum assalom», oila, ota-ona hurmati, mehnatsevarlik, Vatan tuyg'usi, Vatan himoyachilari, ziyoratgohlar, yaxshi-yomon odatlar (yolg'onchi, chaqimchi, kamtarlik, maqtanchoqlik), sehrli so'zlar (rahmat, marhamat, yaxshi)...

Tabiat, uni asrash, xalq o'yinlari, afsona, ertak, bobolarimiz Alisher Navoiy, Amir Temur aytgan pand-o'g'itlari.

2-sinfda bu tushunchalar rivojlantirilgan holda ular negizida yangi tushunchalar beriladi: burch, mehr, inson qadri, vaqtni asrash, o'z-o'zini anglash, mehmon kutish, an'ana, marosim, do'stlashish odobi.

3-sinfda esa: Istiqlol va uning asoschisi, yoshlik, beg'uborlik, qarilik, donolik, tejamkorlik, isrofgarchilik, hunar, orastalik, ehtiyotkorlik, tabiat go'zalligi, qanotli me'morlar, rivoyat, hikoyat, hikmat, hadis va hadisshunos allomalar — Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy.

4-sinfda oldin berilgan tushunchalar zahirida onaga mehr, farzand istiqboli, Vatan, iymon, mustaqillik, nafsni boshqarish, yurt tinchligi, xalq farovonligi, millatlararo totuvlik, bola huquqlari, o'zlikni anglash.

Odobnoma fanidan beriladigan bilimlar:

-odob va axloq, insonga xos fazilatlar haqida avlod-ajdodlarimiz yaratgan merosning mazmuni, mohiyatini va unga amal qilishga o'rgatish;

-odob — inson ko'rki va ma'naviy boyligi ekanligini, va mutafakkir ma'rifatparvarlar asarlaridagi hikmat, rivoyat va o'g'itlarni, milliy sharqona odob-axloq qoidalari, fazilatlarini, o'zbekona urf-odat va an'analarning milliy xususiyatlarni farqlash va amalga oshirish usullarini o'rgatish;

-Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik, mustaqil o'zbekiston — ona Vatanimiz, uning gul-gul yashnashi, rivojlanishi haqida bilim hosil qilish;

-milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'urur, iftixor mohiyatini tushuntirish va ularni ardoqlashga o'rgatish;

-kundalik hayot mazmuni o'rab olgan ona tabiatni asrash va ardoqlash ekanligini o'rgatish.

Odobnoma fanidan ko'nikma va malakalar hosil qilish:

- odob-axloqqa xos sifatlarni o'quvchilarning kundalik ehtiyojiga aylantirish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni (urf-odat, rasm-rusum, an'ana, marosim) o'rganib, ularni turmush tarzida qo'llay olish;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — farovonlik qonuni ekanligi;
- yurt tinchligi, xalq farovonligi, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik tushunchalarining mazmuni;
- komil insonni tarbiyalashga qaratilgan axloq-odob sifatlarini ongli, ixtiyoriy bajarishga odatlantirish;
- ajdodlarimiz qoldirgan komil insonga xos ijobiy sifatlarni yomon holatlardan ajrata bilishga, yaxshilikni o'ziga shior qilib olishga o'rgatish;
- Mustaqil Vatanimizning har bir muvaffaqiyati, istiqlol yo'lida qilinayotgan ishlari bilan faxrlanish va Vatanga mehr hissiyotini uyg'otish, har qanday tajovuzkor kimsalardan nafratlanish;
- odobsiz insonlarga nisbatan murosasiz bo'lish, nafratlanish, ularni shu holatdan chiqarish chora tadbirlarini izlashga o'rgatish:
- «Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya» orqali o'quvchlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish.

«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo'yicha ta'lim dasturini yaratish va Respublikada ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishidan keyin 2001 yilning 25 fevraligacha «Odobnoma» dasturi, darsliklarining mazmuni milliy istiqlol g'oyasi asosiy tushuncha va tamoyillari bilan boyitildi.

Odobnoma darsligi bo'yicha DTS yaratildi, dastur, darsliklar nashr etildi. Odobnoma fani milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasini shakllantirishda keng imkoniyatlarga ega. Bu fandan o'tiladigan har bir mavzu o'zining xarakter xususiyatiga ko'ra o'quvchilarda O'zbekiston istiqloli va istiqboli haqida bilim berishi bilan birga ularni komillikka etaklaydi.

Odobnoma fanining maqsad va vazifasi kelajagi buyuk davlatimiz farzandalarini odobli va yuksak axloqli qilib tarbiyalashdan iboratdir. Bu darslar zamidida milliy urf-odat, rasm-rusum, an'ana, marosim, bayramlarimiz,

momolarimiz ardoqlagan ibo, hayo, pokizalik, bobolarimiz qadrlagan g'urur, jasorat, mardlik, ajdodlarimiz boy ma'naviy merosidan namunalar, qo'yingki o'zbek xalqining qalb gavhari yotadi. Farzandlarimizni iymon-e'tiqodli, vijdonli, adolatli, mehr-muhabbatli, o'z Vatanining sodiq farzandlari qilib tarbiyalash odobnoma darslarining bosh maqsadidir.

Odobnoma darslarida milliy istiqlol g'oyasi ham o'quvchilar yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda singdirib boriladi, ilk tushunchalar beriladi.

Yurtboshimiz I. Karimovning «Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillik, millatidan qat'iy nazar, odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi, kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyorida o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom — O'zbekiston aholisiga xos fazilatdir», degan fikrlari komil va sog'lom avlodga xos fazilat bo'lib, ular odobnoma fanini o'qitish orqali o'quvchilar ongida, qalbida shakllantiriladi.

Odobnoma darslarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar zamirida milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi haqida o'quvchilarga beriladigan dastlabki tushuncha va bilimlar: Mustaqil O'zbekistonimizning istiqlol yillarida erishgan yutuqlarining sabablari, ya'ni Vatanga cheksiz muhabbat, yurt tinchligi, xalq farovonligi, ijtimoiy o'zaro hamkorlik, millatlararo totuvlik ekanligini sodda, oddiy misollar orqali to'g'ri tushuntirish. Komil insonga xos bo'lgan barkamollik dastlab odobdan boshlanishi g'oyasi xalq og'zaki ijodiyotidan boshlab, milliy meros va ma'naviy qadriyatlarda o'z aksini topgan. Shu sababdan odobnoma fani yosh avlodda milliy g'oya va mafkurani shakllantiruvchi debocha fan hisoblanadi.

Odobnoma fanining dastlabki bo'limi: «Odob salomdan boshlanadi».

Asosiy mavzular: «Odob salomdan boshlanadi», «Assalomu alaykum hikmati», «Salom bermaslik va javob qaytarmaslik». Unda dastlab quyidagi tushunchalarga izoh beriladi: «Salom», «Assalomu alaykum», «Vaalaykum assalom», «Odob». Keyin o'quvchilarni to'g'ri salomlashish qoidalari bilan tanishtiriladi.

Salomlashish hamma millatga xos bo'lgan urf-odat ekanligini uqtirish. «Assalomu alaykum» — «Sizga tinchlik, salomatlik tilayman» ma'nosini anglatishini tushuntirish. Salomlashish qoidalari, o'zaro ko'rishish tartibi: jamoat joylarida, telefonda. Rasmlar asosida va hayotiy misollarda o'rgatish.

Salomlashish odobi: ochiq chehra, qo'lni ko'ksiga qo'yish, boshni ozgina egib, tabassum bilan yoqimli tovushda «Assalomu alaykum» deyish.

Salomga javob qaytaruvchi ham odob bilan «Vaalaykum assalom» deb javob qaytarishi lozimligini uqtirish. So'ngra Q. Muhammadiyning «Odob yaxshimi, oftob yaxshi» she'ridan parcha o'qib berib izohlanadi.

Bu darslar-ko'proq noan'anaviy tarzda o'tkazilib o'quvchilarni erkin fikrlashga chorlash, xalqimiz yaratgan maqol, matal, xikmat, ertak va qo'shiqlaridan foydalaniladi.

Navbvtidagi darsda “Salom bermaslikva javob qaytarmaslik” mavzusini tushuntirganda, salom bermaydigan joylar- namoz o'qiyotgan shaxsga, ovqatlanayotganda, hojatxonada, uxlayotgan odamga salom berilmaydi.

Ushbu darsda asosan darslikda berilgan rasmlardan foydalaniladi. Salomlashishi odobi bola qalbida muhrlanishi uchun o'quvchi bir-biri bilan salomlashish inson uchun eng muqaddas burch ekanligini tushuntirish lozim.

“Oila-muqaddas dargoh” bo'limida “Bizning oilamiz” mavzusi berilgan bu darsda dastavval oila nima, u kimlardan tashkil topadi: bobo, buvi, ota-ona va farzandlarning oilada tutgan o'rni haqida ma'lumotlar beriladi. 1-sinf odobnoma darsligida ushbu mavzuga berilgan rasmlar hamda o'qituvchi o'z imkoniyatidan kelib chiqib, darsni ko'rgazmali qurollar asosida suhbat o'tkazadi. O'quvchilarga oiladagi keksalarga hurmat, kichiklarga izzat hissini tarbiyalashga e'tibor qaratiladi. Oilada bajariladigan yumushlarda kimning hissasi qanday bo'lishi haqida to'xtalib o'tiladi. Darsni asosan suhbat usulida olib borish maqsadga muvofiqdir. Mavzuga mos she'rlar, qo'shiqlardan foydalanish mumkin.

Shundan so'ng ma'naviyatimiz beshigi bo'lmish oilaning jamiyatda tutgan o'rni qanday bo'lishi lozimligiga to'xtalinadi, ya'ni Mustaqil O'zbekistonimizning kelajagi uchun odobli, bilimli, har tomonlama kamolotga erishgan

yoshlar kerakligi, bunday farzandlarni tarbiyalash har bir oilaning vazifasi ekanligi aytib o'tiladi.

So'ng davlatimiz tomonidan oilaga, onaga — ayolga, bolaga bo'lgan e'tiborga alohida urg'u beriladi. «Oila yili», «Ayollar yili», «Sog'lom avlod yili», «Onalar va bolalar yili» va nihoyat 2002 yil «Qariyalarni qadrlash yili» deb e'lon qilinganining mohiyatini sodda va lo'nda qilib ochib berish orqali o'quvchilarda biz qanday jamiyat qurayotganimiz haqida tushunchalar hosil qilinadi.

«Vatanimiz ziyoratgohlari» mavzusi. Bu mavzuni o'rganishda avvalo «ziyosat» va «ziyosatgoh» so'zlariga izoh beriladi.

Ziyorat — muqaddas hisoblangan joyga borib sig'inish, elga tanilgan arbob yoki o'ziga yaqin kishining qabriga borish, eslash.

Ziyoratgoh — ziyorat qilinadigan muqaddas er, qadamjo.

O'quvchilarga mustaqilligimiz sharofati bilan ko'plab qadamjolarining qayta tiklanganligi hamda ulug' bobolarimiz nomlari, ishlari elga tanilib, ularga atab ziyoratgohlar tiklanganligi haqida ma'lumot beriladi. Darslikdagi Ahmad al-Farg'oniy, Imom al-Buxoriy, Amir Temur ziyoratgohlari rasmlari ko'rsatilib, ular haqida suhbat uyushtiriladi. Darslikka qo'shimcha tarzda Abu Mansur al-Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi bobolarimizga o'rnatilgan yodgorliklar haqida ham ma'lumotlar berish mumkin. Imkon bo'lsa, o'quvchilar bilan o'zi yashab turgan joydagi biror ziyoratgohni borib ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi.

«Ilm va hunarning xosiyati» bo'limini o'rganishga 3 soat vaqt ajratilgan. Bu bo'lim «Har kimning o'z hunari bo'lsin» (1 soat), «Hunar va vaqt qadri» (1 soat), «Odob — inson ko'rki» (1 soat) mavzulariga bo'linadi. Dasturda bu mavzular 1-sinf o'quvchisi yoshiga moslab yaxshi ochib berilgan. O'qituvchi mavzularni darslikka tayangan holda yoritadi. Kishiga ilm va hunar nima uchun zarur, hunarni to'g'ri tanlay bilish, o'z kasbining ustasi bo'lib etishish haqida hayotiy misollar keltiradi. Darslikdagi maqol, rivoyat, savol va topshiriqlar orqali berilgan bilim mustahkamlanadi.

Bu bo'lim orqali bolalarda ilm va hunarga havas uyg'otiladi, jamiyatimizning kelajagi uchun ilm va hunarli kishilar zarurligi uqtiriladi. Bu

mavzuni o'rganishda ilm va hunarning inson hayoti uchun zarurligi, ilimli va hunarli kishilar dunyoda eng izzatli, hurmatli bo'lishlari. Ilm va hunar inson farzandi uchun eng suyakli, eng shirin ne'mat ekanligi. Ilm — kitobdan, hunar — ustozdan o'rganilishi. Kitobxonlik insonni ilimli, zukko, odobli bo'lishidagi bosh ne'mat ekanligi, kitob va ilm borasidagi maqol, ertak, rivoyat va hikoyatlardan foydalanish orqali ilm va hunar mohiyati tushuntiriladi.

Ayniqsa:

Hadis —Qur'ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba. U Muhammad payg'ambarning hayoti va faoliyati, uning diniy va axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi. Payg'ambarimiz biror gap aytgan yoki biror ishni qilib ko'rsatgan bo'lsa, yoki boshqalarning qilayotgan biror ishini ko'rib, uni man etmagan bo'lsa, shu uch holatning har biri sunnat hisoblanadi. Ana shunday xatti-harakatlar yoki ko'rsatmalar haqidagi rivoyat hadis deb yuritiladi.

Hadis ilmi bilan shug'ullangan olimlar muhaddislar deb yuritilganlar. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziylar hadis ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olimlardir.

Hadislardan namunalar:

Hamma ishlaringizda to'g'ri bo'ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo'lsin.

Odamlarga keng qalbli bo'linglar, shunda odamlar ham sizlarga shunday bo'lurlar.

Inson xatoni ko'proq o'z tili bilan sodir qiladi.

Nonni e'zozlanglar.

Tangri o'z bandalari ichida g'ayratlisini yoqtiradi.

Qilib qo'yib, so'ng uzr so'raladigan ishdan saqlan.

Oralaringizda eng kuchlilarning kimligini aytaymi?

U g'azabi kelganda o'zini tutib tura oladiganingizdir.

Oddiy kiyim kiyish ham iymondandir.

Muloyimlik hikmatning boshidir.

Biliming shunday narsaki, u yalang'och bo'lganingda ham o'zingda qoladi, hammomga kirsang suv bilan yuvib bo'lmaydi.

Bilimsiz kishilarning ko'ngli xurofotga moyil bo'ladi.

Ertayu kech dushmanga zararu, do'stga foyda keltirgan mardlar mardidir.

Oriyatli yigit o'zini qurbon qilishga ham borib etadi yoki zulmni daf qilishga, qo'ni-qo'shnilarni, xalqni muhofaza qilishga o'tadi.

Yaxshilik —jamiki odamlarga yaxshilik qilmoqdan iboratdir.

Bu hadislarning mazmuni, albatta, o'qituvchi tomonidan ochilib, o'quvchilarga sodda til bilan tushuntiriladi.

Abu Ali ibn Sinoga bag'ishlangan mavzuda esa, dastlab uni tabobat ilmining sultoni ekanligi, bolaligini ifodalovchi rivoyatlar bilan tanishtiriladi. «Uzuk voqeasi» rivoyati orqali ibn Sinodagi zukkolik, farosat, kishilarga mehr-shafqat tuyg'ulari mohiyati ochiladi.

Ibn Sino tabobat, odob sohasida juda ko'p asarlar yaratganligi, uning nomi butun dunyoga mashhur bo'lishining sabablari haqida, ibn Sinoning Vatani haqida ma'lumot beriladi.

Odobnoma fanida milliy istiqlool mafkurasining milliy va umuminsoniy tamoyillaridan biri bo'lmish milliy xususiyatlarimizdan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi, ota-ona, mahalla-ko'yga hurmat, ona tiliga muhabbat, kattaga hurmat, kichikka izzat, ayolga ehtirom, sabr-bardosh, mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibatlariga oid qator mavzular berilgan bo'lib, o'qituvchilarimiz bu darslarni o'tishda qo'shimcha adabiyotlardan o'rinli va unumli foydalanishi lozim.

Milliy istiqlool mafkurasining asosiy g'oyalari bo'lmish — Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik dars mavzularidan kelib chiqqan holda o'quvchilar yoshiga moslab tushuntirib boriladi.

Odobnoma darslarini o'tish o'qituvchidan chuqur bilim, mahorat, ijodkorlik talab etadi. Buning ustiga u kichik yoshdagi o'quvchilarga mo'ljallanganligi bilan

ham o'ziga xosdir. Agar bu darslar o'quvchilar yoshi, qiziqishi, materialni qabul qilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'tilmasa, kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi.

Shuning uchun o'qituvchi qiziqarli suhbatlar, o'yin, rasmlar, ertak, hikoya, afsona, rivoyatlar, topishmoq va maqollar, audio va video yozuvlaridan, ommaviy axborot vositalari materiallaridan, qolaversa, hayotiy tajribasidan ham foydalanishi kerak bo'ladi. Darsning noan'anaviy turi ushbu darslar uchun qulaydir. o'quvchilarning ijodiy ishlari, test sinovlari dars samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chorak yoki o'quv yili oxirlarida tadbirlar o'tkazish, ushbu tadbirlarga ham milliy istiqlol g'oyalarini singdirib yuborish ayni muddao bo'ladi.

Shunga erishish kerakki, o'quvchi quruq tinglovchi bo'lib qolmasin, balki u darsning faol ishtirokchisiga aylansin, aylanganda ham, o'z fikrini erkin, aniq, puxta va ravon ifoda eta oladigan, bahsga kirisha oladigan, muammolar echimiga ijodiy yondosha oladigan ishtirokchiga aylansin. Ana shundagina biz o'z burchimizni bajargan bo'lamiz.

Ajdodlarimiz odob muammosini hal qilishda har bir xalqning milliy merosi va qadriyatlarini o'rganib, uni umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tardilar.

Shuning uchun yosh avlodga odob o'rgatish kishilik taraqqiyotining har bir bosqichida turli yo'nalishlarda tavsiyalar, pand-nasihatlar, munojotlar orqali xalq orzu-umidiga yangi-yangi izlanishlar bilan kirib kelgan. Xalq yaratgan afsona, ertak, maqol, rivoyat, hikoyat, yozma yodgorliklar-bitiklardagi bosh masala — «yaxshilik» va «yomonlik» g'oyalarini farqlashdir. Pandnomalar — «Turkiy shohnoma», «Avesto», «To'tinoma», «Hotamnoma», «Qobusnoma», «Bozornoma» kabilarda xalqning ezgu orzu-umidlari aks ettirilgan. Xalqning boy merosini o'rganib, odob va axloq haqidagi g'oyalarni tavsiflab bir majmuaga mujassamlashtirgan mutafakkir, ma'rifatparvar, mashoyix, hadisshunos olimlar o'z asarlarida uni yanada takomillashtirganlar.

Shuni ta'kidlash lozimki, odob-axloq borasidagi tushunchalar insoniyat tarixida quyidagi qonuniy taraqqiyotga ega. Odoblilikka doir tushunchalarni abadiy o'sib borishi: imyon, e'tiqod, Vatanni sevmak, sabr-bardosh, yo salbiy yoki ijobiy

ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar shaklan o'zgarmasligi, lekin mazmunan rivojlanuvchi xarakter kasb etishi. Xalq hikmatlarida:

Agar odobli bo'lsang ey sarafruz,
Ki izzatda bo'lursan qish bilan yoz.

Bu hikmatda odob insonning umr bo'yi hamrohi ekanligi ko'rsatiladi.

Odob haqidagi g'oyalarning ma'nosi kengaytirilgan holda mutafakkirlarning asarlarida ifodasini topgan. Imom Taqoviyning «Aqoid», Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Abu Ali ibn Sinoning «Tadbir al-manozil», Abu Rayhon Beruniyning hikmatlari, Navoiyning «Mahbubul qulub», Voiz Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», shu bilan birga Faxriddin Akbarzodaning «Ta'limi soniy», Qori Sharif Ahmadning «Muallimi din» (1934 y.) kabi asarlari odob darsliklari sifatida maktablarda o'rganilgan.

Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asari ko'p jihatdan Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston» asariga tahalub qilingani uchun Avloniy «bo'ston» so'zini tashlab, asarini «Turkiy guliston» bo'lsin degan edi.

Markaziy Osiyo mashoyix, olim-avliyolari ijodiyotida bosh g'oya sifatida odob-axloqning nufuzi deb, «nafsni tiyish», «qo'lni haromga urmaslik», «oz e, oz ich, oz so'zla» yoki «diling Ollohda, qo'ling mehnatda bo'lsin» kabi shiorlarni olg'a surdilar. Ular Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Abduholiq G'ijduvoni, Orifxonlardir.

Hadisshunos olimlar al-Buxoriy, at-Termiziy payg'ambarimiz hadislarini tahlil qilib «Ishonchli to'plam», — «Jome' as-Sahih»ni yaratdilar. Muhammad SAV ni «Ummatlarimga etkazish uchun kimki sunnatimga oid 40 ta hadisni yod olsa, men ul odamni qiyomat kuni shafomatga olurman» degan so'zlari bor. Payg'ambar murojaatiga javoban mutafakkir Alisher Navoiy «Arbain» asarida 40 hadisni nazm ila bayon etgan edilar.

Yuqoridagi avlod-ajdodlarimizdan qolgan meros va milliy qadriyatlarimiz ma'naviyatimizni tashkil etadi. Ma'naviyat yoki ayrim bir kishining ichki hayoti,

ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujas-samlashtiruvchi tushuncha yoki dunyoda ma'no izlagan kishi ma'naviyat sari talpinib, yaxshilik va yomonlikning farqini anglab oladi. Shu sababli I. Karimov «Istiqlol va ma'naviyat» asarida yoshlarni tarbiyalashning uch omilini ko'rsatadi:

- umuminsoniy qadriyatlar;
- islom ta'limoti;
- o'zbek milliy urf-odatlar.

Ma'naviyati sog'lom insonning komilligi uning o'ziga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Qur'oni Karim va Hadisi Sharifda insonning baxt-saodatligi, andishaliligi, farosatligi, odobi-axloqi ko'p jihatdan o'ziga bog'liqdir, deyiladi.

Sharqona milliy urf-odat va qadriyatlar xalq og'zaki ijodiyotida va pedagogik qadriyatlarda uzviy rivojlanishi qonuniy rivojlanishning bir holatidir.

Milliy axloq-odob va qadriyatlarni oilaviy tarbiyadagi o'rni masalasini o'rganish va tadqiq qilishda shunga guvoh bo'ldikki, kishilik taraqqiyotining har bir bosqichida axloq-odobga doir yangicha udum, rasm-rusum, rivoyat, hikoyat, an'analarning mazmuni yangilansada, uning negizi, ildizi, g'oyasi saqlanar ekan.

1. Odob-axloq tushunchalarini har bir maqol, ertak, hikoyat, rivoyatlarda uchratish mumkin. Lekin undagi g'oya insonga xos bo'lgan bir fazilatni tarbiyalashga qaratilgan.

2. Pandnomalarda — «Avesto», «Hotamnoma», «Qobusnoma», «Guliston» «Bo'ston», «Turkiy shohnoma», «Saodatnoma», «Kalila va Dimna»larda axloq-odob bilan mashhur qahramonlar misolida yoki pand-nasihat tariqasida bayon etib, xalq og'zaki ijodiyotidan ancha yuksakligi bilan farq qiladi.

3. Pedagogik qadriyatlarda, mutafakkir va ma'rifatparvar olimlarning asarlarida odob-axloq g'oyalari ma'lum ilmiy ta'rif berish bilan boyitilgan.

4. Badiiy asarlar, ertak, afsona, qissa va dostonlarni o'qib tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, undagi mehr, vafo, ishonch, iltijo kabi tushunchalar mavjud.

Mehrsiz oila har qanday badxulq (yomon xulq) ishlarning kelib chiqishiga sababchi bo'ladilar.

1. Bolalarini o'z holiga qo'yib, ulardan uzoq yashovchi ota-onalar.
2. Bolalarini mehribonlik uylariga topshirganlar
3. Bolani kamsitib, uning qalbi va g'ururini mensimaydigan oilada mehr-oqibat haqida gap bo'lishi qiyin albatta.
4. Ota-onaning har bir ishini minnat qilishi odobsizlik hisoblanadi.

Har qanday jinoiy ishlarga qo'l uruvchilar ota-ona mehridan bahra olmaganlardan ko'proq chiqishini hayot ko'rsatmoqda. Imom al-Buxoriy aytadilarki: «Kimki rizqim ulug', umrim uzoq bo'lsin desa, qarindosh-urug'lariga mehr-oqibatli bo'lsin».

Komil farzand uchun ham ota-ona mehri zarur. Qarindosh-urug'ing senga ming g'amxo'rlik qilganda ham, ularning o'rnini bosa olmaydi. Ayrimlar ota-ona va qarindoshlari ko'zi tirik paytida bemehr bo'ladilar. Ota-onaning qadri va mehri ko'proq ular olamdan o'tganda bilinadi.

Bir qalandar shunday kuylagan ekan:

Otasi bor, onasi bor,

Bozor boshida o'ynaydi.

Otasi yo'q, onasi yo'q,

Mozor boshida yig'laydi.

Oilaviy hayotda inson barkamolligiga nima foyda, nima zarar ekanligi ham milliy meros-qadriyatlarimizda alohida o'rin egallagan.

Faxriddin Rasul o'zining «Axloqnoma» asarida «Boylik, uni asrash va sarflash» haqida yozar ekan odamlarni 3 guruhga bo'lgan: xasis-baxillar, maqtanchoq saxiylar, haqiqiy saxiylar.

1. Xasis-baxillar. Hech kimga ravo ko'rmay mol yig'ishadi. O'zlarini g'arib va muhtoj odamlar deb ko'rsatadilar. Xalqimiz yaratgan axloq-odob qoidasiga to'g'ri kelmasligi sababli, bunday oila boshliqlarini xasis, ochko'z, qurumsoq yoki «non emas» deb ataganlar.

2. Maqtanchoq sahiylar. Uy-ro'zg'ori tang, oila a'zolari qiynalayotganini bila turib jamoat orasida manmanlik bilan o'zini ko'rsatadi. Bu holat ham sharoitga to'g'ri kelmaydi. Bunday oila boshliqlarini maqtanchoq saxiylar deyiladi.

3. Haqiqiy sahiylar. Uy-ro'zg'ori butun, oilani to'liq moddiy va ma'naviy ta'minlagan, topgani reja bilan sarflanadigan, qarindosh-urug'lariga yordam beradigan, g'aribi muhtojlarni o'z himoyasiga oladigan oila boshliqlari haqiqiy saxovat egalaridir.

Milliy axloq-odob va qadriyatlarimizda uchraydigan «yaxshi» yoki «yomon» xislatlarning mohiyati va mazmunini erta yoshdan boshlab bolalarga singdirishga ota-ona, qo'ni-qo'shni, mahalla mas'ul bo'lishi lozim. Xalqimizning: «Bir bolaga etti qo'shni ota-ona», deyilgan maqoliga amal qilish kerak.

Milliy axloq-odob va qadriyatlardagi yaxshi udumlardan biri oilada ota-onaga cheksiz hurmatdir.

Aslida, ota uyi, ota vatani bo'lishi kerak. Chunki ayol palaxmon tosh kabi ota vataniga boradi, lekin ona aziz-mo'tabar bo'lgani uchun ona, Vatan — ona diyor deb ulug'lanadi. Milliy axloq-odobda otalarni oilada adolatli bo'lishligiga alohida e'tibor berilgan.

Otaning adolatli bo'lishi oiladagi odobning ustuni, insoniylikning asosi hisoblanadi. Adolat — insof eshiklarini odamlarga ochib beradi. Ayniqsa, otaning adolat yuzasidan ish ko'rishi muhim hisoblanadi. Qadim zamonda bir bola qozi otasiga «ustozim meni jazoladi» deb yig'lay boshlabdi. Ota surishtirmay, ustozni jazoladi. Farzand bu holatni ko'rib, otani adolatsizligidan nafrat qilish o'rniga, «otam bor ekan, nima ish qilsam qilaveraman» deb o'ylaydi. «Adolatsiz otadan adolatsiz farzand», degan dono so'z bejiz emas, albatta.

Axloq-odob va qadriyatlarda farzand burchi, ota-ona mehriga loyiq bo'lishi alohida o'rin egallaydi. Farzand ota-ona uchun qanchalar shirin va aziz bo'lsa, ota-ona ham bolaga shunchalik aziz va shirin bo'lishi kerak.

Xalqimiz aytganidek: «Har kim ekanini o'radi». Ota-onaga nima qilsang, bola-chaqangdan qaytadi.

Xalq milliy axloq-odobida farzand burchidagi bosh g'oya ota-onani g'animat bilish.

Gar desang umrimda g'amgin bo'lmayin,
Ota-ona xizmatin qil, xizmatin.

Milliy odob-axloq va qadriyatlarning oiladagi o'rni dastlab ezgu niyatda.

Tongi kayfiyat — yaxshi xosiyat. Inson har kuni «qanday xayrli ishga qo'l ursam», degan yaxshi niyat bilan turishi muhim ahamiyatga ega. «Turkiy shohnoma» kitobida aytilganidek: «Ey o'g'il! Bomdod nomozdan so'ng otanonangni ziyorat qilgin, agar ulaming biror yumushi bo'lmasa, o'z yumushing bilan shug'ullangin. Shunda umringiz, kuningiz barakatli bo'ladi.

Milliy odob tartib-qoidalari islomiy ma'naviyatda ham alohida e'zozga sazovordir. «Saodat kaliti» kitobida Payg'ambarimiz SAVning yuksak odob-axloqlari va ibratli hayotlari hikoya etiladi. Abdurahmon Qoya «Islom axloqi» risolasida islomiy qadriyatlar, odamiylik, halollik, adolatparvarlik, do'stlik, kamtarlik, saxiylik, mehr-oqibat ko'rsata bilish, oliyjanob fazilatlarni mohiyati-mazmuni bilan birga, zararli illatlar oqibatlarini chuqurroq anglab etish uchun hayotiy misollar keltiradi.

II-2 “Odobnoma” darslarida “Qutadg’u bilig” asaridan foydalanish borasidagi shart-sharoitlar.

Boshlang’ich sinflarda Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarini o’rganishda katta e’tibor berilmagan I-II sinf darsliklariga Yusuf Xos Hojib haqida ham uning shox asari hisoblangan “Qutadg’u bilig” asari haqida ham ma’lumot topolmadik. 1-sinf o’qish darsligida allomaning “O’quv va bilim” haqida fikrlaridan 1 soatga mo’ljallab material keltirilgan. Bu mavzu orqali o’quvchilar alloma haqida deyarli ma’lumotga ega bo’lmasalarda, lekin uning o’quv, idrok, bilim haqidagi fikrlaridan baxramand bo’ladilar. Ayniqsa mavzuda keltirilgan “Bilimdon o’z bilimi tufayli balo, ofatlardan omon qoladi” xikmatli so’zi o’quvchilarni yoshlikdan boshlab bilimlarni chuqur va puxta egallashga undaydi. Lekin bir soatlik material boshlang’ich sinflarning 2-3-sinflarida davom ettirilgan. Vaholanki, Yusuf Xos Xojibdek didaktik asar yozgan, ham ta’lim-tarbiya haqida qimmatli fikrlar bergan alloma pedagogika tariximizda sanoqlidir.

IV sinf o’qish darsligiga keladigan bo’lsak Yusuf Xos Hojib va uning shox asari “Qutadg’u bilig” haqida ikki soatga mo’ljallangan material berilgan.

“Odamdan nima qoladi” deb nomlangan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilag” asaridan qisqacha parcha o’quvchilarga alloma haqida, uning asari haqida juda qisqa ma’lumotlar beradi. Mavzuda yigitlik va uning qadri, tiriklik chirog’ini tez o’tib ketishi, ezgulik yomonlik yaxshilik, bilim egallash, donolik, so’z bilarmonchilik, odob haqida Yu.X.Hojibning g’oyalari yaratilgan. Bu tushuncha va g’oyalar o’quvchilarga dunyoqarashni shakllantiradi. Shuning uchun biz T.Saydaliev nomli 2-umumta’lim maktabining 4-“A” sinfda “O’qish” darslaridagi “Odamdan nima qoladi?” mavzusi asosida ikki soat dars o’tkazdik. Darslarni olib borishda quyidagi dars ishlanmadan foydalanib bordik. Darsni T.Saydaliev nomli 2-umumta’lim boshlang’ich sinf o’qituvchisi Zulxumor Raxmonova olib bordilar.

Dars mavzusi: “Odamdan nima qoladi?”

Maqsad: O'quvchilarga Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari haqida ma'lumot berish hamda ularda milliy qadriyatlarimiz durdonalarining tarbiyaviy roli haqida tushunchalarni hosil qilish.

Darsning Yusuf Xos Hojibning rasmi;
jihozi: "Qutadg'u bilig" kitobi, didaktik ishlanmalar.

Dars o'qituvchining kirish so'zidan boshlandi. O'qituvchi o'z so'zida alloma haqida, uning "Qutadg'u bilig" kitobi to'g'risida batafsil ma'lumot berdi:

"Odamdan nima qoladi?" parcha allomaning "Qutadg'u bilig" asaridan olinganligini o'qituvchi alohida ta'kidlaydi. Dars quyidagi reja asosida olib borildi.

1. Yusuf Xos Hojibning hayoti va ijodiy faoliyati haqida qisqacha tushuncha.

2. Yu.X.Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining yaratilishi.

3. Insonning vafotidan keyin qanday esga oladilar?

4. Ilmli, dono kishilarni nima uchun hurmat qiladilar?

5. "Yaxshi nom oladi,ko'r, ezgu kishi,

Yomonlar nasibi-el-yurt qarg'ishi "

Misralarning mazmunini aytib bering.

O'qituvchi Yusuf Xos Hojib 1016-1018 yillar orasida Bolasog'un shahrida dunyoga kelganligi, uning ota-onasi asil zodagonlar naslidan ekanligi, u ota-onasi va madrasadan ancha pishiq ilm olganligi, o'zi Qorahoniylar sulolasi vakili ekanligini qisqacha bayon etib, so'ngra allomaning shox asari "Qutadg'u bilig" haqida batafsil to'xtaldi.

"...Qo'ling el aro uzin bo'lsa , sen o'z fe'l-atvoringni ezgu tut. Yigitlik mangu emas, u juda tez kechadi. Tiriklik chirog'i ham ko'z ochib-yumguncha o'chadi. Hayot tushdek bir gap. U yashindek tez kechadi. Tiriklikda jami ezguliklarni yig'moq kerak. Ular keyinchalik egulik va kiygulik bo'ladi. Ezgulik haqida shunday deydi:

Bu nafas oluvchi, ya'ni tirik jon, oxir-oqibatda o'ladi. Axir olamda tug'ilgan odamzodning biri ozroq, boshqa biri ko'proq yashaydi, so'ng baribir vafot etadi.

Lekin podsholikni ham, oddiy odamning ham vafotidan keyin qoladigan narsasi – nomi bor.

Agar senga shu navbat joyi tekkan bo'lsa, sen unga munosib tarzda yashagin.

Ezgulikning nomi buyuk bo'ladi, yomonlar nasibi qarg'ish va so'kishdan boshqa narsa bo'lmaydi.

Ana endi o'zing aytgin-chi, sening tabiatingga ezgulik nomi yoxud yomonlik? Sen o'z shaxsinga maqto'v istaysanmi yoki so'kish-qarg'ishmi? Tilaging qanday bo'lsa, shundan kelib chiqib zing birini tanlab ol. Keyin o'kinib yurma."

O'qituvchi yuqorida hikoya qilgan parcha Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridan ekanligini ya'na bir bor aytadi. U "Qutadg'u bilig" ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan didaktik asar ekanligini alohida uqtirib, bu tushunchalarni doskada yozib qo'yadi. Doskada yuqoridagi tushunchalar qatoriga ya'na "yigitlik davri", "hayot", "ezgulik", "vafot etish", "nom-nishon qoladi", "yomon nom", kabi so'zlarni ham yozib qo'yadi.

O'qituvchi o'quvchilarga doskada yozilgan tushunchalarga qisqa-qisqa izoh bergach, quyidagi suhbatni o'tkazadi:

- O'qituvchi: Didaktik asar qanaqa bo'ladi?

- O'quvchi - Anvar: O'quvchilarga ilm haqida tushuncha berib, uni o'zlashtirish shakli, metodlarini bayon etadigan asar didaktik asar hisoblanadi:

O'qituvchi o'quvchi so'zlarini tushuntirib, o'quvchilarga didaktik asar –bu ta'lim-tarbiyaning ilmiy-nazariy tomonlari haqida ma'lumot beradigan asardir deb izoh beradi.

- O'qituvchi: Ezgulik nima?

- O'quvchi – Qayum: Insonning hayotdagi orzu armonidir. U o'zidan so'ng ezgu ishlar, ezgu niyatlar qoldiradi.

O'qituvchi o'quvchi javobini to'ldirib, "ezgu" inson yashashining maqsad va mazmunidir. U bu dunyoda yashar ekan kishilarga nafi tegadigan foydali ishlar qilmog'i lozim. Bunday odam o'zidan keyin yaxshi nom, yaxshi amal qoldiradi.

Yuqoridagi suhbatdan so'ng o'qituvchi o'quvchilar bilan quyidagi metod vositalar asosida ish olib boradi. Bunda u quyidagi savollarni o'quvchilarga beradi:

- O'qituvchi: Odamdan nima qoladi?

Bir nechta o'quvchilar bu savolga javob berish uchun qo'l kutardilar.

- O'quvchi – Lola: Odam o'lgach undan yaxshi nom, ezguliklar qoladi.
- O'qituvchi: To'g'ri : Ezgu nima o'zi-u?
- O'quvchi – Salim: - Yaxshi nom.
- O'quvchi – Nigora: -Yaxshi xulq.
- O'quvchi – Shuhrat: - Ibratli ish.

Ya'na bir necha o'quvchilar “Agar shoir bo'lsa, undan yaxshi she'rlar, rassom bo'lsa yaxshi rasmlar, loyixachi bo'lsa yaxshi binolar qoladi, deb javob beradilar.”

O'qituvchi o'quvchilar fikrlarini rivojlantiradi: “Odam ezgu ishlarini tiriklik chog'idayoq to'plab boradi: Yaxshi niyat, yaxshi ish misqollab yig'iladi.” Bu haqida nima deysizlar

O'quvchilardan bir nechtasi o'qituvchi savoliga quyidagi javoblarni qaytaradi:

- Oybek: O'tkinchi dunyoda ilm o'rgan. Ilm barcha ezgulikning asosidir.
- Maftuna: Bilim va hunar insonni ulug'laydi.
- Qodir: Agar inson bilan va kasb egallasa dunyoda eng aziz hisoblanadi.

U hamma erda kerak bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini umumlashtirib, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan kichik bir parcha o'qib, uning mazmunini tushuntirdi.

O'qituvchi dars jarayonida mavzu matnini savol-javob orqali o'quvchilar ongiga etkazishga harakat qiladi. Dars oxirida mavzu haqida g'oyalar asosida insho yozib kelish vazifasini beradi. Insho mavzusi “Qutadg'u bilig” asarining mohiyati haqida edi.

Insho rejasi: 1. “Qutadg'u bilig”da ezgu qanday ifodalangan?

2. Ilm qanday ifodalangan?

3. Kasb-hunar haqida nima deyilgan?

4. Til (so'z) qanday ifodalanadi.

Xulosa.

O'quvchilar insho rejasini uy vazifasi daftariga yozib oladilar.

Dars o'quvchilarga Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari haqidagi umumiy tushunchalar berish, o'quvchilar asarda ifodalangan g'oyalar asosida tarbiyalash vazifasini bajardi.

Endi biz «Qutadg'u bilig» asaridan olingan parchaning («Odamdan nima qoladi») davomi asosida o'tkazilgan ikkinchi darsning mazmunini tashkil qilamiz.

Mavzu: «Odamdan nima qoladi?»

Darsning mavzusi: Odamdan puxta o'zlashtirilgan bilim, hunar, yaxshilik, a'lo hulq, xushmuomalalik qolishi haqida tushuncha berish, o'quvchilarni tarbiyalashdir.

Dars ko'rgazmali qurollar bilan jihozlangan.

O'qituvchi oldingi darsda vazifa qilib berilgan «inshoni» tashkil etadi. Baxolar qo'yadi. So'ngra yangi darsni boshlaydi. Darsda o'qituvchi quyidagilarni so'zlab beradi.

«O'tmishga nazar solsak ajdodlarimizning kattalari ham kichiklari ham bilimli va dono bo'lsa ular el-yurt taqdirini o'ylaganlar. Boshliqlar bilimli, dono bo'lsa o'z atrofiga o'ziga o'xshaganlarni yig'gan. Bu xil boshliq elini boyitadi. U saxiy degan nom oladi. Uning nomi o'rnakdir, abadiydir.

Bilimsiz kishi yilqi-hayvon bilan teng. Kishi so'zni tili bilan so'zlaydi. So'zlari yaxshi bo'lsa yuzi suv oladi, ya'ni obro' qozonadi. Alp er To'nganning bilimi ulug', hunari talay edi. Tojiklar uni Afrosiyob deb atashgan.»

O'qituvchi o'qib bergan mavzu matnidagi ba'zi so'zlarni doskaga yozib qo'yadi va so'zlar mazmunini izohlab beradi: «Bilim», «Dono», «Saxiy», «Til».

O'quvchilar «saxiy»- ko'ngli bo'sh, topganini boshqalar bilan baham ko'rishni istovchi odam, «bilim»- fanni o'rganishdan paydo bo'ladi, «dono» so'zlarni o'n o'lchab bir kesadigan, bir kesib so'zlaydigan kishidir.

Dono kishi izzat topar.

“Til-soʻz, fikr almashish qurolidir”.

Oʻquvchilarning fikrlarini oʻqituvchi muxtahkamlaydi.. Oʻqituvchi:
“Qutadgʻu bilig”dagi mana bu sheʼriy satrni tushuntirib bering.

Bilim berdi, inson butun ulugʻlikka erishdi.

Oʻquv berdi, shu tufayli tugunlar yozildi.

Bir nechta oʻquvchilar sheʼr mazmunini aytishga harakat qildilar.

-Sadoqat: Ilm olgach, odam ulugʻlikka erishdi.

-Oʻqituvchi: toʻgʻri, yaʼna kim soʻzlaydi.

-Alisher: Kimda kim ilm olsa, u ulugʻlikka erishadi.

Dilafruz: Kimga ilm bersa u ulugʻ buladi.

-Oʻqituvchi tugʻri javob bergan oʻquvchilarni ragʻbatlantiradi.

-Oʻqituvchi: “Oʻquv nima?” deb soʻraydi.

Oʻquvchilar “oʻquv u yoki bu ishni qila olishlik”. Oʻquv ishlarni yaxshi oʻzlashtirish ham oʻquvga bogʻliqdir. Oʻqituvchi “oʻquv vauquv malakasini yaxshi egallagan kishilar elda hurmat topar” deb oʻquvchilar fikrlarini umumlashtiradi. Soʻngra oʻqituvchi allomaning til haqidagi fikrlaridan keltirib, oʻquvchilar bilan quyidagi pedagogik jarayonni oʻtkazdi. Bu jarayonda oʻquvchilar diqqati tilga qaratildi.

- Oʻqituvchi: Til nima ?

- Oʻquvchilar: “Til bilimga tilmoch” deb javob berdilar.

- Sitora: Til insonni eʼzozlaydi, hurmatlaydi.

- Maʼmura: Til (soʻz) tufayli koʻtariladi.

Oʻqituvchi: Til (soʻz) haqidagi oʻquvchilarning yuqoridagi fikrlarini umumlashtiradi. Soʻngra oʻqituvchi “toʻgʻri soʻzlash”, “Rost soʻzlash”, “Oʻylab soʻzlash”, haqidagi Yusuf Xos Hojib gʻoyalaridan baʼzilarini bayon etadi

“Soʻzingdan ehtiyot boʻl, boshing ketmasin,

Tilingdan ehtiyot boʻl, tiling ketmasin”.

“Bilib soʻzlasa soʻz, donolik sanaladi

Nodoning soʻzi oʻz boshini eydi”.

“Koʻp soʻzda ortiq foyda koʻrmadim,

Yana (ko'p) so'lashdan naf topmadim.”

O'qituvchi yuqorida keltirilgan she'riy misralarning mazmunini tushuntirib berishni o'quvchilardan so'radi.

O'quvchilar birin-ketin qo'l ko'tarib she'r mazmunini ochish haqidagi quyidagi fikrlarni bayon etdilar.

“Boshing kesilmasin desang, so'zingga ehtiyot bo'l,

Tishim sinmasin desang, tilingga ehtiyot bo'l”.

“Kimda-kim bilib so'zlasa uni dono hisoblashadi“.

“Nodonning so'zi ko'pincha uning boshini eydi”.

“Ko'p so'z eshakka yuk, u hech kimga biror bir foyda keltirmaydi”.

“Ko'p so'z zararlidir”.

Bu fikrlar o'qituvchi tomonidan to'ldiriladiva umumlashtiriladi. Inson doimo o'z tiliga, so'ziga ehtiyot bo'lmog'i, so'zni topib gapirmog'i, ba'zida ortiqcha yolg'on so'zlamasdan sikut saqlamog'i lozimligini alohida uqtiradi. Ulug' ne'mat inom etganso'ni o'z o'rniga to'g'ri ishlatmoq katta saodatdir.

Darsning keyingi qismida o'qituvchi Yu.X.Hojibning “Qutadg'u bilig” asaridagi odob-axloq haqida to'xtaladi. U asardan quyidagi parchalarni o'qib beradi. O'quvchilardan o'qilgan she'rdagi mazmunini ochib berishni talab etadi.

“G'iybatchi kishiga aralashma, uzoqlash,

G'iybatchi kishi tilida o't yonadi, ko'r.”

“Yana ta'magir bilan yaqin bo'lma,

Shubhasiz u senga dushman bo'ladi.”

“Odamlardan sarasini, yaxshisini oshno

Kimning do'sti og'aynilari yaramas, tut,

bo'lsa, keyin o'kinadi.”

“Do'st tutmoq oson, rioya qilmog'i qiyin,

Dushman bo'lmoq oson, yarashmog'i qiyin...”

O'qilgan she'riy parchalarni o'quvchilar o'z daftarlariga ko'chirib oladilar.

So'ngra o'quvchilar o'qituvchiga quyidagilarni gapirib beradilar.

“G’iybatchi kishi dustlikka loyiq emas. Shuning uchun undan uzoqlashmoq lozim. Ta’magir kishi bilan yaqinlashsang, u doim o’z manfaatini o’ylab, sendan biro-bir “yaxshilik” ishi uchun pora talab etadi. Undan uzoqroq yur”. “Odamlar yaxshi va yomon bo’ladilar, yaxshini yomondan ajrata bil.” “Do’st tanlashda adashma. Yaxshi do’st jon ozug’i”. “Odamlardan arazlama, janjallashib qolsang tezda uzr so’ra”.

Bu kabi javoblarda Yu.X.Hojibning axloq va odobga oid g’oyalari qisqa ravishda yoritib berilgan.

O’qituvchi dars davomida “Qutadg’u bilig” asarinig mohiyatini o’quvchilarga tushuntirar ekan, bu asar o’quvchilarni ilm olishga, kasb tanlashga, axloq-odob qoidalarini o’rganishga undovchi didaktik asar ekanligini yana bir bor ta’kidlaydi.

Bu o’rinda o’qituvchining metod tanlashdagi ishlari maqtovlidir. Suhbat, munozara, kecha o’tkazish, kitob ustida bolalarning ishlashlari, she’riy parchalar tanlash, ularni tahlil qilishga o’rgatish, tanqidiy fikr yuritish kabi metod va vositalardan foydalanish darsning samaradorligini yanada oshirdi, dars maqsadini ochishda katta rol o’ynaydi. Dars materiallari o’qituvchi tomonidan mustahkamlandi. Dars materiallaridan “Ilm va ksb-hunar egalla” mavzusida insho yozib kelishni uyga vazifa qilib topshirdi.

Shunday qilib 4-sinf “O’qish kitobi”dagi “Odamlardan nima qoladi” mavzusi Yu.X.Hojibning “Qutadg’u bilig” asaridan olingan bir parchadir. Mavzu 2 soatga mo’ljallangan edi. Bu mavzuga bag’ishlangan darslar o’quvchilar ongiga Yu.X.Hojib haqida, uning pedagogik-didaktik xarakterdagi qimmatli asarning mohiyati, maqsad va vazifasi haqida bilim, malaka, ko’nikma hosil qilishga qaratilgan edi. Asarni hozirgi davr ta’limi amaliyotiga kiritish bizning ilmiy tadqiqot ishlarimizga kirar edi. Yu.Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asari asosida, qo’shimcha materiallardan foydalanib alohida dars ishlanmasi asosidadarslar o’tkazdik. Sinov tajriba ishimizning maqsadi Yu.X.Hojibning va uning “Qutadg’u bilig” asarining mohiyatini ochish va undan foydalanish metodikasini ishlab

chiqish edi. Olingan natijalarni taqqoslash uchun 4-“V” sinfi nazorat sinfi qilib belgilandi.

4-“V” sinfdagi darsni maktab o’qituvchining o’zi olib boradi. 4-“V” sinfd ham 41ta o’quvchi mavjud edi. Har ikki sinfd o’quvchilarning bilim va malaka darajalarini aniqlab chiqildi.

Quyidagi jadvalda o’quvchilarning umumiy o’zlashtirish berilgan

№1

№	Sinflar	O’quvchi soni	Bilim darajalari			
			“5”	“4”	“3”	“2”
1.	4-“A” – sinov-tajriba sinfi	41	8	22	11	-
2.	4-“V” – Nazorat sinfi	41	6	24	11	-

Har ikki sinf o’quvchilariga bir xil savollar berildi.

Bilim, hunar haqida Yu.X.Hojib qanday ta’rif bergan?

Saxiylik nima?

Til (so’z) haqida alloma nima deydi?

Odam o’lgach undan nimalar qoladi?

Maqtov va maqtov nima?

Berilgan so’roqlarga asosan 4-“A” sinov-tajriba sinfi o’quvchilariga puxta bilim berilgan edi. Nazorat sinfi hisoblangan 4-“V” sinf o’quvchilariga esa kitobdagi dars matnlaridagi so’zlar tushuntirilgan edi.

Har ikki 4-“V” sinf o’quvchilariga bir xilda tuzilgan yuqoridagi so’roqlar berilganda ularning javoblari turlicha bo’lib chiqdi. So’roqlarga olingan javoblarga qo’yilgan baholar ularning bilim, ko’nikma va malakalarining mezonini belgilaydi.

№2

	SAVOL – EZGULIK NIMA ?							
	4 – “A” sinov-tajriba sinfi.				4 – “V” Nazorat sinfi.			
Jami	O’quvchilarning olgan baholari.				O’quvchilarning olgan baholari.			
41	“5”	“4”	“3”	“2”	“5”	“4”	“3”	“2”
41	22	8	11	-	9	8	24	-
	“ILM-HUNARNING AHAMIYATI” HAQIDAGI SAVOLGA”							
	22	16	3	-	6	14	21	-

2-chizmadan ma'lumki tajriba-sinov o'tkazilgan 4-“A” sinf o'quvchilari, nazorat 4-“V” o'quvchilariga nisbatan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarining mazmunini to'g'ri va puxta anglaganlar.

4-“V” sinf o'quvchilari “O'qish” kitobida berilgan mavzu matnlarini yuzaki o'zlashtirganlar. Masalan: “Ezgulik nima” savoliga 4-“V” sinf o'quvchilaridan 9tasi “Ezgulik-bu bilim egallash, yaxshilik qilish, nomini elga ibrat qilish” deb tushunganlar. Ularning bu javoblari “5” baho bilan baholandi. Shu o'quvchilardan 8tasiga “4” baho, 24 tasiga “3” baho qo'yildi. Bu savolga tajriba-sinov o'tkazilgan 4-“A” sinf o'quvchilaridan 22 tasi “5” bahoga, 8tasi “4”, 11tasi “3” bahoga javob berdilar.

“Ilm va hunarning ahamiyati nimada” degan savolga 4-“A” sinf o’quvchilaridan 22tasi “5”, 16tasi “4”, 2tasi “3” baho olgan bo’lsa, nazorat sinfi 4-“V” sinf o’quvchilaridan 6tasi “5”, 14tasi “4”, 21tasi “3” baho olganlar.

Xuddi shu kabi “Til (so’z)ning qadri”, “So’zlashmoq odobi” kabi savollarga ham 4-“A” sinf o’quvchilari 4-“V”sinf o’quvchilariga nisbatan bergan javoblari uchun yuqori baho olganlar. “YusufXos Hojib kim bo’lgan?” degan savolga ham 4-“A” sinf o’quvchilari “Yusuf Xos Hojib Bolosog’unlik, atoqli mutafakkir, davlat arbobi bo’lgan” deb javob berganlar. Yoki “Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarining hozirgi sharoitda foydalanish yo’llarini ko’rsating” degan savolga 4-“A” sinf o’quvchilari “Qutadg’u bilig” asarining hozirgi sharoitda foydalanish yo’llarini ko’rsating” degan savolga 4-“A” sinf o’quvchilari “Qutadg’u bilig” asaridagi “ilm, hunar, til, so’z, kasb-hunar, ezgulik, yaxshilik kabi tushunchalarning ahamiyati haqidagi g’oyalar shu bugungi yoshlarimizni tarbiyalashga xizmat qilishi mumkin” deb to’g’ri javob berdilar. Chunonchi, bobomiz Yusuf Xos Hojib insoniylik g’oyalarini egallash odamning komil bo’lishiga o’rgatishni ko’rsatib berganlar.

Yusuf Xos Hojib va uning “Qutadg’u bilig” asaridagi inson kamolotiga ilm, til, kasb-hunar, o’zini tuta bilish, ehtiyotkorlik, tilni tiyish, mehnat qilish, ezgu-ahloqning roli haqidagi g’oyalar o’quvchilar ongiga o’qishdan tashqaridagi tarbiyaviy tadbirlar jarayonida yanada rivojlantiriladi.

Umumiy xulosa va tavsiyalar.

Mustaqil davlatimiz ma'naviy-ruhiy tiklanish davri shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Biz bu jarayonni davlatimizning milliy meroslarimiz qadriyatlarimizni qayta tiklash, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, yuksak ahloqiylik ruhida tarbiyalashda ma'naviy merosimiz sarchashmalaridan ta'lim-tarbiyaning en samarali quroli sifatida foydalanish borasida olib borayotgan davlat dasturlarida, qonunlarida o'z ifodasini ko'rishimiz mumkin.

Hammanizga ma'lumki muqaddas kitoblarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimizning ma'naviy meroslari bizni doimo xalol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqiradi, lekin, shu bilan birga, hayotda bu kabi da'vatlarga amal qilishga intiladigan odam ko'pincha turli qiyinchiliklar, hatto azobu uqibatlarga duch kelishini kuzatish qiyin emas "Tan olish kerakki yuksak ma'naviyat tushunchalari bilan yashashga harakat qiladigan odamning ham ko'p mashshaqatlarni, og'ir sinov va to'siqlar, muammolarni engib o'tishga to'g'ri keladi".¹⁴

Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiriladigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishni yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Albatta har qaysi xalq va millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlardan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar xalq ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda nafaqat bizning mamlakatimiz, balki jahonning eng yirik kutubxonalarida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, ahloq, falsafa, tibbiyot, matematika, minerologiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir.

¹⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.—T.: Ma'naviyat, 2008-yil

Mana shunday ma'naviy boyliklarimizdan biri, chashmai-bulog'i Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari bo'lib hisoblanadi.

Yusuf Xos Hojibning ushbu mshhur asari 6500 baytdan yoki 13000 misradan iborat bo'lib, chinliklar (Xitoy) "Adab ul-muluk" ("Hukmdorlar odobi"), mochinliklar (Sharqiy Turkiston) "Anis-ul-mamolik" ("Mamlakatning tartib usuli"), eronliklar "Shohnomai Turkiy", Sharq elida "Ziynat ul-umaro" ("Amirlar ziynati"), turonliklar "Qutadg'u bilig", ba'zilar esa "Pandnomai muluk" ("Hukmdorlar nasihatnomasi") deb atagani kitob muqaddimasida keltirib, asarning qiymati naqadar bebaho ekanligidan dalolat beradi.

Mazkur asarning shuhrat topishi bejiz emas edi. Chunki Yusuf Xos Hojib o'z davrining etuk mutafakkiri, chuqur bilimli, donishmand kishi edi. Chunki, u barcha ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi muomala, munosabatlarni yoritish bilan diplomatiyaga oid qoidalar tizimini yaratdi, turli kasb egalarining kasbkoriga oid talablar va jamiyatning ahloqiy tamoyillarini tarannum etish bilan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos uslubini yaratdi.

"Qutadg'u bilig" – baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildiradi. Insoniy munosabatlarning eng oliy mezoni sanalgan hurmat va ehtiromi tarkib toptirishning barcha ko'rinishlari asarda o'z ifodasini topgan.

Biz o'z bitiruv malaka'iy ishimizda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridan foydalanish borasidagi amaliy ishlarni tashkil etdik, o'quvchilar bilan hamkorlikda asarning tarbiyaviy g'oyasining yoshlar ongiga ta'sirining qanchalik muhim ekanligini o'rgandk va quyidagi xulosaga keldik:

1. Yusuf Xos Hojibning biz o'z ishimiz mavzusi nuqtai nazardan tahlil etgan mazkur asari insonni har tomonlama kamolga etkazishning barcha masalalari o'zining badiiy ifodasini topgan yirik ta'limiy-ahloqiy dostonidir.

2. mustaqil davlatimiz siyosatining bosh va ustivor maqsadi har tomonlama etuk barkamol shaxsni voyaga etkazishdir. Mana shu vazifani bajarish bajarish mobaynida ma'naviy etuklikning qoidalarini o'zida mujassam etgan qomusiy asarlardan foydalanishning, ayniqsa o'quv dasturlariga qo'llashni taqazo etadi.

3. Boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayoni o'quvchi shaxsi rivojlanishining eng asosiy va muhim davri hisoblanadi. Mana shu davrda ular olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlari mazmuniga juda e'tiborli bo'lishlikni talab etadi.

Olib borgan malakaviy ishmizning natijasi va xulosalarimiz asosida quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisobladik.

1. O'quvchilar ahloqiy tarbiyasini aqliy kamoloti bilan birga rivojlantirish uchun ham "Qutadg'u bilig"dagi ta'limiy g'oyalardan samarali foydalana bilish zarur.

2. Boshlang'ich sinf "Odobnoma" darsligida dasturda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asariga bor yo'g'i 1 soat vaqt ajratilganligi inobatga olsak, ushbu durdona asar mohiyatidan, uning g'oyasidan o'quvchini xabardor qilishga ko'proq vaqt ajratilishi zarur.

Umuman olganda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari o'z mazmun mohiyati bilan barcha yoshdag, barcha ksb-hunar egalari uchun ham g'oyat tarbiyaviy va ta'limiy ta'sir imkoniyati cheksiz asardir. Uni o'rganish, uni targ'ib qilish har birimiz uchun muhim vazifa deb bilishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». - T.: O'zbekiston, 1997-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, 1997-yil.
3. I.A.Karimov “Istiqlol va ma'naviyat” , Toshkent:, “O'zbekiston”, 1994 yil.
4. Karimov I.A. “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyoti poydevori”, - T:., “Sharq” nashriyoti, 1997 yil.
5. Karimov I.A Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur»jurnali, 1998-yil, 2-son, 29 bet.
6. I.A.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”, - Toshkent:, “O'zbekiston”, 1999 yil.
- 7.Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.- T.: O'zbekiston, 2000-yil
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.–T.: Ma'naviyat,2008-yil
9. B.Tuxliev. Bsuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asarida so'z boshi. – Toshkent:, “Yulduzcha” nashriyoti. 1990 yil 6-bet.
10. B.Tuxliev. “Bilim ezgulik yo'li”, Toshkent:, “Fan” nashriyoti, 1990 yil.
11. B.Tuxliev “Yusuf Xos Hojibning badiiy mahorati”. – Toshkent, 2005 yil.
12. B.O.Qodirov, B.M.Murtozaev. “Chag'aniyon” adabiyoti, Toshkent: 2002 yil.
13. Zununov A., va boshqalar. “O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar”, Toshkent:, “Fan”, 1996 yil.
14. Zununov A. “O'zbek pedagogikasi tarixi” (o'quv qo'llanma), -T:., “O'qituvchi”, 1997 yil.
15. Zununov A. Va boshqalar “Pedagogika tarixi” (darslik), -T:., “Sharq”, nashriyot matba kontserni bosh tahririyati, 2000 yil.
16. Ibragimov X. “Ma'naviy qadriyatlar asosida ta'limni tashkil etish”,-T:., “Meros”, 2001 yil.
17. Ibrohimov A. Va boshqalar “Vatan tuyg'usi”, Toshkent:, “O'zbekiston” 1996 yil, 439-bet.
18. Karimov Q. “Ilk badiy doston”. Toshkent:, “Fan”, 1976 yil.

19. K.Hoshimov va boshqalar. “Pedagogika tarixi” (pedagogika oliy o’quv yurtlari va universitet talabalari uchun qo’llanma).-Toshkent, O’qituvchi, 1996 yil.
20. Hoshimov K. va boshqalar. Pedagogika tarixi. – Toshkent., O’qituvchi, 1996 yil.
21. Hoshimov K., Safo Ochil “O’zbek pedagogikasi antalogiyasi”., Toshkent., “O’qituvchi”, 1995 yil.
- 22.Yusuf Xos Hojib. Qutadg’u bilig («Saodatga boshlovchi bilim»).. Toshkent, «FAN» nashriyoti, T., 1971
23. Yusuf Xos Hojibning. Qutadgu bilig. Nashrga tayyorlovchi Qayum Karimov. Toshkent “Fan”, 1971,115-bet.